

Mundarija

Kirish.....	3
I Bob. <i>Tarjimaning lingvistika bilan munosabatining sotsiolingvistik izohi</i>	
1.1. Sotsiolingvistika tushunchasining etimologiyasi.....	9
1.2. Sotsiolingvistikada adabiy til muammolari va ularning tarjimaviy xususiyatlari.....	18
1.3. Sodda soʻzlashuv va adabiy til masalasi va ularning badiiy tarjimaga bevosita taʼsiri.....	20
I bob boʻyicha xulosalar.....	24
II Bob. <i>Madaniyatlararo muloqot jarayonida tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlari</i>	
2.1. Madaniyatlararo muloqot va tarjima jarayonining sotsiolingvistik ahamiyati.....	25
2.2. Zamonaviy tarjimashunoslikda sotsiolingvistik tadqiqotlarning oʻrni...30	
II bob boʻyicha xulosalar.....	32
III Bob. <i>Ekvivalentsiz leksika va uni tarjimada berilishining sotsiolingvistik xususiyatlari</i>	
3.1. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda «ekvivalentsiz leksika» tushunchasi va uning tarjimaviy xususiyatlari.....	35
3.2. Tillararo lakunarlikning tarjimaviy masalalari.....	41
III bob boʻyicha xulosalar.....	45
Xulosa.....	48
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	52
Ilova	

KIRISH

O'tgan asrning ikkinchi yarmi va bugungi kungacha tilshunoslik fanida sezilarli o'zgarish yuz berdi. Tilshunoslikda bir qancha ilmiy fan sohalari paydo bo'ldi, lingvistik pragmatikani o'z ichiga olgan kommunikativ tilshunoslik shular jumlasidandir. Lisoniy faoliyat keng miqyosda, turli omillarga bog'liq holda o'rganila boshlandi. Nutqiy muloqotda (matnda) inson (shaxs) faktori muhim rol o'ynashiga ahamiyat berildi. Til tizimi va nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan matn qurilishini shu paytgacha filologik nuqtai nazardan tahlil qilib kelinayotgan tilshunoslik doirasi endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga doir tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi. Tilshunoslik yana bir soha-kognitiv lingvistika sohasi bilan o'zini boyitdi. Tarjima nazariyasiga ham kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan yondoshila boshlandi. Tarjima faoliyatida kognitiv dissonans (bilish tizimidagi mos kelmaslik) tushunchasi paydo bo'ldi.

Xalqi ma'rifatli, jahon ilm-fani va ma'daniyatidan xabardor mamlakatning ravnaqiga ravnaq qo'shilaveradi. Shu bois keyingi yillarda O'zbekiston rahbariyati joylarda ilm-fanni, birinchi galda, universal oliy ta'limni rivojlantirish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'ra boshladi. Bu maqsadlarga katta miqdorda mablag' ajratildi. Xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy - texnikaviy ta'lim sohasida hamkorlik tobora chuqurlashib bordi. Shubhasiz, bu tadbirlar mazkur tizimda keskin burilish yasash, hozirda mamlakatni yuksak malakali yosh bilimdon mutaxassislar bilan ta'minlashga imkon berdi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi [2, 62].

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. Ko'p madaniyatli olam muhitida turli madaniyat vakillarining o'zaro bir-birlarini tushunmasligi, muloqot jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar va madaniy konfliktlar, badiiy tarjimada adekvatlikni yo'qolishi madaniyatlararo munosabatlar strategiyasining murakkablashuviga sabab bo'lib, badiiy tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlarini chuqur o'rganish vazifasini ilgari surmoqda. O'zga xalqlar

madaniyati va tilidagi milliy o'ziga xoslikni ifodalovchi, ikkinchi bir tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni anglashga urinish, ularni tarjima tiliga o'girish usul va vositalarini ishlab chiqish, ularning mohiyatini anglash bugungi kundagi madaniyatlararo muloqotni sotsiolingvistik ildizlarini chuqurroq o'rganishni taqozo qilmoqda.

Tadqiqotimizning nazariy ahamiyati. Erishilgan natija va xulosalar ijtimoiy ekvivalentsiz leksika va uning ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girishga doir nazariy va amaliy tadqiqotlarni metodologik asoslarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Aralash tushunchalarni ifodalovchi ekvivalentsiz leksika, lakuna, sotsiolegemalarning konsepsiyalashtirilishi tarjimaviy xususiyatlarini tadqiq qilish, ularning mazmuniy, funksional xarakteristikalarini oydinlashtirib tarjima nazariyasi va amaliyotini yangi bosqichlarga ko'tarishga, madaniyatlararo muloqotni tadqiq qilishda yangi yo'nalishlar ochilishiga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotimizning amaliy ahamiyati. Mazkur ishning yutug'i va xulosalardan tarjima nazariyasi va amaliyoti, madaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, madaniyatlararo muloqot fanlarini o'qitishda ma'ruza materiallari sifatida, inglizcha-o'zbekcha maxsus lug'atlar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot maqsadi. Badiiy tarjima va madaniyatlararo muloqot jarayonida uchraydigan ijtimoiy xarakterdagi leksikaning mohiyatini va funksiyalarini ingliz-o'zbek tillari materiallarida sotsiolingvistik va madaniyatlararo munosabatlar asosida tadqiq qilishdir.

Qo'yilgan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalarni hal qilish rejalashtirildi:

- Ijtimoiy- madaniy mazmundagi ekvivalentsiz leksika tushunchasining mazmunini mavjud nazariy-metodologik yondashuvlar asosida sotsiolingvistik xususiyatlarini aniqlash;

- lingvomadaniyatshunoslikka doir leksikani ular zamiridagi ichki konnatativlikni turli tillar madaniyatidagi lakunalar sifatida metaforizasiyalash prinsiplari asosida klassifikasiya qilish;

- ijtimoiy ekvivalentsiz leksika tushunchasini lakuna, sotsiolegema darajasidagi semantikasini aniqlash va ularning o'zbek tiliga o'girish vosita va usullarini aniqlash.

Binobarin tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlarini tobora jadallashib borayotgan madaniyatlararo munosabatlar sifatida tadqiq qilish, natijalarini amaliyotga tadbqiq qilish, bugungi mustaqil respublikamiz uchun ham nihoyatda muhim vazifalardan biri deya tushunilishi lozim. Madaniyatlararo muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi birinchi navbatda har ikkala til madaniyatidagi, tilidagi o'ziga xos ma'no anglatuvchi leksik birliklar tarjimasini obyektiv usul va yo'llarini aniqlashga, bu boradagi sotsiolingvistik murakkabliklarini belgilashga va ularni tarjima qilishda asosiy strategiyalarni belgilash bilan bog'liq.

Tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlari shu paytgacha asosan lingvistik aspektda tadqiq qilib kelinganligini alohida ta'kidlash joiz. Ayni paytda esa uning sotsiologik aspektda, madaniyatshunoslik aspektda qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida, bu borada tarjimaning o'rnini tadqiq qilinishi bugungi kunda o'z dolzarbligicha qolib turibdi. Masalan, masalaga madaniyatshunoslik nuqtai nazardan yondashilsa, har ikkala tilga xos bo'lgan tarjimaning sotsiologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ekvivalentsiz leksika, uning falsafiy, lingvistik, etnopsixologik, va lingvomadaniyatshunoslikka doir qirralari yanada oydinlashgan bo'lardi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunga kelib tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlari butun dunyo olimlarining diqqat-e'tiborini tortib kelayotgan, eng muhim tadqiqot obyekti hisoblanayotgan qiziqarli masalaga aylanib bormoqda. Masalaga doir tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlarga bo'lib o'rganish mumkin:

falsafiy, lingvistik, etnopsixolingvistik, lingvomadaniyatshunoslik aspektida o'tkazilgan tadqiqotlar.

Masalan,

1. Madaniyatshunoslik falsafasida tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlari postmodernizmning o'ziga xos xususiyatlari prizmasida:

- obyektning, narsaning(bizningcha tushunchaning «mavjud emasligini» fiksasiya qiluvchi «belgi» si (J. Derrida, Yu. Kristeva);

- diskursda mavjud bo'lmagan fenomen, «o'ta chuqur strukturalar», «cho'kib qolgan qavvatlar», «bir-birlariga chatishib ketgan obyektlarning ko'p sonli lakunarligi», subindividual belgilar, «qoldirib ketiladigan bo'sh joy, yetishmovchilik» sifatida (M. Fuko, Yu. Kristeva);

- madaniyatlararo muloqot jarayonida ro'y beradigan leksik ma'noga doir qarama-qarshilik, «tushunmaslik» sifatida (V. P. Grisenko, T.Yu. Danilchenko) tadqiq qilinib kelmoqda.

2. Masala lingvistik yondashuv kontekstida tillararo lakunarlik sifatida quyidagi yo'nalishlarda tadqiq qilinmoqda:

- ekvivalentsiz leksika sifatida (L. S. Barxudarov, D. Popova, A. Sternin, B. Xaritonova, O. A. Ogursova, V. L. Muravyev, Yu. S. Stepanov);

- lug'aviy ochiq joylar (словарная пробелы), semantik muhitdagi «oq dog'lar» («белые пятна ») (Z. S. Stepanov, N. B. Mechkovskaya, V. L. Muravyev, Yu. A. Sorokin, Yu. Markovina);

- bo'shliq, nul korrelyat, «qorong'i o'rin» (L. K. Bayramova, B. Выкова, A. T. Xrolenko, N. V. Dmitryuk, N. A. Sandıbayeva, A. Axmetjanova);

- til va madaniyatdagi milliy o'ziga xos farqlar (B.Выкова, L. Muravyev, S. B. Mechkovskaya, I. V. Tomasheva, N. V. Bagryanskaya);

- etnoeydema, ksenonim (V. L. Muravyev, V. V. Kabakchi, Ye. Konrad, X. Shreder);

- virtual birlik (G. V. Выкова, T. Yu. Danilchenko);

- til va madaniyat vakilining uzual tajribasiga mos kelmaydigan realiyalar, proesslar, holatlar (N. D. Glazacheva, A. O. Ivanov, O. Titova, X. Shreder, E. Grodzki, Sh. Rexman);

- matn ichida va matn tashqarisida interpretasiyani talab qiluvchi matnlar majmuasi (E. Grodzki, Sh. Rexman).

3. Lingvomadaniyatshunoslik kontekstidagi tadqiqotlarda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- til va madaniyatning o'zaro bir-birlariga, madaniyatlararo muloqotga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar (V. Gumboldt, L. Vaysberger, M. M. Baxtin, Yu.S. Stepanov, V. V. Vorobyev, , L. I. Grishayeva, M. K. Popova, V.G. Zinchenko, A. P. Sadoxin, Ye.F. Tarasov, G.V. Yelizarova, A. Ertelt-Fiit, Ye.Densova-Shiidt, A. A. Shuneyko, A. A. Rivlina, N. L. Glazacheva, va b.);

- lakunalarning lingvomadaniyatshunoslikka ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar (Sorokin, V.I. Jelvis, I. V. Tomasheva, L. K. Bayramova, Ertelt-Fiit, E. Grodzki, A. S. Nikiforova, va b.);

- madaniyatshunoslik doirasidagi lakunalar tarjimasi bilan bog'liq bo'lgan kognitiv tilshunoslik va siomatika nuqtai nazarda o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar (I. Panasyuk, I. K. Sitkareva);

- matnning kognitiv lakunasini madaniyatlar aro muloqot doirasida o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar (Ye. G. Proskurin);

- lakunalarni madaniy simvol nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar (A. Ertelt-Fiit, Ye. Denisova-Shmidt);

- madaniyatlararo lakunalarni konseptlar tizimida o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar (L. A. Lebedeva, O.M. Savrasova).

Masalaga doir tadqiqotlarning miqdori juda ko'pchiligiga qaramasdan «ekvivalentsiz leksika», «lakuna» «sotsiolegema» «realiya» tushunchalarining o'zaro bir-birlariga bog'liqligi, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar hozirgacha to'liq va atroflicha o'rganilmaganligi bois, ularning tarjimadagi va

madaniyatlararo muloqotdagi mazmuniy va funksional o'ziga xosliklari aralash-quralash, ba'zan sinonimik tarzda talqin qilinishi davom etib kelmoqda.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz-o'zbek madaniy munosabatlarini aks ettiruvchi sotsiolingvistik lisoniy birliklarning tarjima aspektini tanladik.

Tadqiqot predmeti sifatida ingliz tilidagi o'zbek tiliga o'girishda uchraydigan ekvivalentsiz leksikalar, lakunalar, sotsiolegemalar va ularning sotsiolingvistik aspektda o'ziga xosliklarini tadqiq qilish muammosini tanladik.

Ishning nazariy va metodologik asoslari sifatida tarjimaning umumiy sotsiolingvistik xususiyatlarini tadqiq qilgan rus va xorijiy olimlar ishlab chiqqan nazariy adabiyotlarga tayandik. (Dj. Borden, V.B. Gudikunst, V.G. Zinchenko, L. I. Grishayeva, A. V. Surikova, M. K. Popova, Ye. F. Tarasov, Yu. V. Petrov, V. N. Dulganova va b.), postmodernizm (M. Fuko, Yu. Kristeva va b.), lakuna (Yu. A. Sorokin, I. Yu. Markovina, A. Ertelt-Fiit, G. V. Быкова, A. A. Rivlina, Ye. Denisova-Shmidt, X. Shreder, E. Grodzki, V. P. Grisenko, T. Yu. Danilchenko va b.), kulturemalar (A. Oksaar, P. Dones, M. G. Yashina va b.), logoeπισtemalar (V. G. Kostomarov, N. D. Burvikova, Ye. N. Kanayeva va b.), postmodernizm (M. Fuko, Yu. Kristeva va b.) Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan, o'zaro bir-birlarini to'ldiradigan quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalandik:

- lingvistik va lingvomadaniyatshunoslikka doir lakunalarni o'zaro bog'liqligini, bir-biriga o'tish jarayonini ochishga yordamlashadigan siomatik, tipologik tahlil metodlaridan;

- struktur-funksional tahlil metodidan, bu orqali ijtimoiy ekvivalentsiz leksika, lacuna va sotsiolegemalarning matndagi va madaniyatlararo aloqalardagi funksiyalari aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy **yangiligi** quyidagilar bilan ifodalandi:

- ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girishda ekvivalentsizlikning milliy-madaniy aspektdagi ikki holatda: lakuna madaniyat fenomeni sifatida lingvokulterema

funksiyasida va madaniyatlararo muloqot fenomeni funksiyasida kelishligi aniqlandi;

- lakuna tushunchasining mohiyati madaniyatlararo muloqot jarayonida olamning lisoniy-milliy tasavvurini ifodalovchi konsept representi ekanligi aniqlandi;

- lingvomadaniyatshunoslikka doir ekvivalentsiz leksika ichki konnatativlikni turli tillar madaniyatidagi lakunalar metaforizasiyalash prinsiplari asosida klassifikasiya qilindi;

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishimiz mazmuni 58 bet, kompyuter yozuvida bayon qilingan bo‘lib, kirish, uch bob, har bir bob uchun alohida xulosalar, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning birinchi bobi masalaning nazariy asoslarini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, to‘rtta paragrafda til mavjud bo‘lishligining sotsiolingvistik omillari, sotsiolingistikada adabiy va milliy til masalalari va ularning tarjimaviy xususiyatlari, sodda so‘zlashuv tili va adabiy til masalasining o‘rganilishi va ularning badiiy tarjimaga ta’siri, aralash tillarni o‘rganilishi, jumladan badiiy matnida o‘zbek va ingliz tilillari va uning tarjimaviy xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan.

Ishning ikkinchi bobida tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlari madaniyatlararo muloqot kontekstida bayon qilinib, tarjima jarayoni va madaniyatlararo muloqotning sotsiolingvistik xususiyatlari va hozirgi zamon tarjimashunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan.

Ishning uchinchi bobida ijtimoiy ma’noli ekvivalentsiz leksika va uning tarjimada berilishi muammolari o‘rganilgan bo‘lib, unda ijtimoiy ekvivalentsiz leksikaning mohiyati, ularning tillararo lakunalar, sotsiolegemalar, realiyalar bilan aloqadorligi va ularning o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonidagi leksik, semantik, pragmatik omillar o‘rganilgan.

I BOB TARJIMANING LINGVISTIKA BILAN MUNOSABATINING SOTSIOLINGVISTIK IZOHI

1.1. Sotsiolingvistika tushunchasining etimologiyasi

Insoniyat tarixidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda ta'lim va tarbiya shaxs kamolida o'zining muhim o'rnini egallab kelgan. Shu bois insonlar hamma zamonda ham turli sabablarga ko'ra bir-biri bilan muloqotda bo'lishga intilishgan va bunda til muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi zamon sotsiologik tarmoqlar tizimida jamoatchilik fikri va uni ifodalovchi til muhim o'rin tutadi va katta ahamiyatga egadir. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi ijtimoiy hayotdagi barcha sohalar va umumnazariy, metodologik va xususiy sotsiologik maktablar bilan bevosita bog'liqlikda ish tutadi.

Sotsiologiya - (lat. *societas* - jamiyat va ... *logiya* so'zlaridan; frans. - *sociologic* - jamiyat haqidagi ta'limot) - umumiy hamda xususiy sistemalarning yashashi va taraqqiyoti qonunlari va harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risidagi fan.

Sotsiologiya jamiyatdagi turli hodisalar va ularning o'zaro aloqasini, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hamda kishilarning ijtimoiy xatti-harakati umumiy qonuniyatlari va elementlarini o'rganadi. Sotsiologiya xilma-xil ilmiy metodlar yordamida mavjud ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etib ularning rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko'ra bilishi bilan ideal jamiyatlar to'g'risidagi xayoliy nazariyalardan tubdan farq qiladi. Sotsiologiya o'z tadqiqotlari natijalaridan sotsial jarayonlarni boshqarishda foydalanadi. Sotsiologiya ish olib borishiga ko'ra farq qiladi. Bu farq falsafiy xarakterda bo'lib, unda muayan sinf manfaati ifodalanadi. Sinfli manfaat konkret tadqiqot obyekti va metodika tanlashda, shuningdek sotsiologiyaning shaxs va jamiyat haqidagi boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Sotsiologiya mustaqil fan sifatida XIX asrda shakllangan (Sotsiologiya terminini O. Kont kiritgan), lekin uning ayrim elementlari qadimgi ko'p falsafiy ta'limotlarda mavjud bo'lgan. Xususan, qadimgi yunon faylasuflari ijtimoiy hayot, tarixiy taraqqiyot to'g'risida turli g'oyalarni ilgari surganlar. O'rta osiyolik

mutafakkirlar (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy) asarlarida ham jamiyat, uning yashashi va rivojlanishi haqida muhim fikrlar bildirilgan. VIII asrda kishilik jamiyati, uning qonuniyatlarini o'rganuvchi mustakil fan sifatida tarixi faylasufiyasi shakllandi. XIX asrgacha sotsiologiya faylasufiyani tarkibiy qismi bo'lib keldi. XIX asrning boshlaridan o'ziga xos ilmiy metodlarga ega bo'lib, faylasufiyadan ajralib chiqarib boshladi. Sotsiologlar boshqa maxsus fanlarga xos ayrim nazariya va g'oyalardan foydalanib, ularni jamiyat hodisalariga ko'r-ko'rona tatbiq etib boshladilar. Masalan Spenser biologik organizmlarning rivojlanish qonuniyatlarini jamiyat taraqqiyotiga, sotsial-organik dunyodagi hayot uchun kurash qonuniyatlarini jamiyatga tatbiq etdilar. Lekin bunday holat ijtimoiy taraqqiyotdagi real jarayonlarni buzib aks ettirishga olib kelar edi. Umuman bugungi kungacha bo'lgan sotsiologik nazariyalar ijtimoiy hodisalarni idealistik, metafizik talqin qilib, tarixiy voqealar sababini odamlarning ichki intilishlaridan izlar, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi moddiy ishlab chiqarish va ishlab chiqarish munosabatlarini, xalq ommasining tarixdagi rolini inkor qilardi. XIX asr sotsiologiyasiga pozitivizmning ta'siri kuchli bo'lgan.

Bevosita XX asrga kelib bu fan tilshunoslikka ham aloqador jihatlari borligi o'rganila boshladi. Tilshunoslikda bir necha sotsiologik gipotezalar paydo bo'ldi.

Zamonaviy tilshunoslikda ko'p yillardan beri o'rganilib kelinayotgan til va nutq masalasi hali tadqiq etilishda davom etib kelmoqda. Bu borada ko'plab sotsiallingvistlar ham tadqiqot ishlari olib borgan bo'lib, ularni ta'kidlashicha nutqda sotsial xarakteristikaning o'rni ham muhim hisoblanadi. O'tgan asrning 60-yillarigacha sotsial statusga asoslanib ayol va erkak nutqi obektiv o'rganila boshladi. Bu tadqiqotni R.Lakoff, B.Praysler, F.Smit, D.Kameron, Dj.Kouts, Ye.Koskas, J.Kristeva, M.Yagello, B.Ebisher kabi olimlar olib borishdi.

Shunday qilib, murakkab umumiy va xususiy sotsiologik fanlardan iborat bo'lgan zamonaviy sotsiologiya tizimi uni ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan keng aloqalarni taqozo etadi. Bu aloqalar ham umummetodologik bosqichda, ham

maxsus xususiy fanlar va ilmiy yo‘naliishar bo‘yicha olib boriladi, bu esa uni zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlari tizimidagi o‘rnini aniqlab beradi.

Sotsiolingvistika fanining taraqqiyoti ko‘p jihatdan uning turli filologik ta’lim bosqichlarida o‘quv jarayoniga tatbiq etilishiga bog‘liq. Umumiy tilshunoslik kurslarida (“Tilshunoslikka kirish”, “Umumiy tilshunoslik”, “Lingvistik nazariyalar tarixi” va xk.) sotsiolingvistika zamonaviy tilshunoslikning bir yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqiladi va talabalar bu fanning umumiy jixatlari bilan tanishishadi xolos. Ijtimoiy tilshunoslikning muammosi, tarixi, terminologik-tadqiqot tizimining ishlanmaganligi, qardosh fanlar materiallarining sotsiolingvistik taxlili to‘liq ochib berilmasligi, nafaqat sotsiolingvistika, balki filologik predmetlarning ko‘pchiligini o‘qitish sifatiga ta’sir qiladi [47, 3].

Sotsiologiya ijtimoiy-gumanitar fanlari iyerarxiyasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Falsafa va tarix bilan birgalikda, u ijtimoiy fanlar tizimining umummetodologik negizini shakllantiradi.

Lekin shu bilan birga ushbu tizimda jamiyat rivojlanishi qonuni va qonuniyatlarini o‘rganuvchi umumfundamental bo‘lgan falsafaning alohida o‘rnini ta’kidlab o‘tish lozim. Bundan tashqari sotsiologiya bugungi kunda tilshunoslik faniga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan holda yangi - sotsiolingvistika fanini tashkil qildi.

Sotsiolingvistika - tilshunoslikning bo‘limlaridan biri bo‘lib, til va uning jamiyatdagi o‘rni va rolini o‘rganadi. Sotsiolingvistik tilshunoslikning psixolingvistika va etnolingvistik kabi fanlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Sotsiolingvistika dastlab 1920 yilda Afanasiy Selishev tomonidan ilm olamida qo‘llanilgan bo‘lsa, 1950-1970 - yillarda Uriel Vaynrayx va Uiliyam Labovlar tomonidan rivojlantirilgan.

Sotsiolingvistikaning asosiy maqsadi - u yoki bu jamoani tashkil etgan odamlar tildan qanday foydalanishlari na shu til faoliyat ko‘rsatayotgan jamiyatdagi o‘zgarishlar til taraqqiyotiga nechog‘lik ta’sir ko‘rsatishini o‘rganishdan iboratdir. Bu maqsadlar sotsiolingvistikaning ikki asosiy muammosi -

tilning ijtimoiy farqlanish muammosi va til taraqqiyotining ijtimoiy shartlanganligi muammosi bilan mos tushadi [47,11].

Sotsiolingvistikaning predmeti keng qamrovli tushunchalar tashkil etib, ularga til va millat, milliy tillarning tarixiy kategoriya sifatida namoyon bo'lishi, tilning sotsial differentsiatsiyasi, lisoniy va sotsial strukturaning o'zaro bog'liqligi, til hodisalarining tipologiyasi, ko'p tillilikning sotsial aspekti kabilar kiradi. Bu kabi qarashlar bilan bevosita "Til va millat" tushunalari xam bog'liq bo'lib ular millatning sotsial munosabatini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi va uni ma'lum meyorlarga solib turadi. Bu esa o'z navbatida yana bir qator tushunchalar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Tilning mavjudligi ma'lum bir lisoniy holat va tushunchalar - regional qo'llanish, hududiy va sotsial dialekt va ularning etnik kelib chiqishiga tayanadi.

Bugungi kunda sotsiolingvistik vaziyatlarni tadqiq qilish kuzatish obyektlarining konkretligi bilan kuzatishlar, tekshirishlar, aniqliklar kiritish imkoniyatining mavjudligi va turli eksperimentlar o'tkazish imkoniyatining mavjudligi bilan metodologik ahamiyatga egadir. Hozirgi zamon lisoniy materillarini sinxron tadqiq qilishda juda aniqlik bilan sotsiolingvistik taxlilning predmeti va birliklarini aniqlash, tadqiqot jarayonini avvaldan belgilab olish, ularni tasvirlash modellarini ishlab chiqish, ilgari surilgan konsepsiya va nazariyalarning tushunarlik darajasini aniqlash, ularga oid aniq terminologik bazani yaratish mumkin. Aynan ana shular orqali boshqa, bizdan ancha uzoq bo'lgan davrlardagi til taraqqiyotining xronologik tasvirlarini o'rganish va ulardan diaxronologik tadqiqotlar uchun foydalanish mumkin.

Muhim sotsiolingvistik muammolardan yana bir bu bilingvizm (ikki tillilik) ning sotsial aspektlari hisoblanadi. Shartli ravishda ikkita tilning bilingvizmligi bir-biri bilan ma'lum meyorda bog'liq hisoblanadi. Jamiyatda turli til sohiblari qanchalik ko'p bo'lsa, dunyo qarash ham turlicha bo'ladi. Bevosita madaniyatlararo munosabatlar ham tafovutli va o'xshash shakllarda bo'ladi. Sotsial fikr har doim ko'pchilik tamonidan ishlab chiqilgan bo'ladi. Shuning uchun unda

ma'lum bir vaziyatga to'g'ri jihatdan yondashilgan bo'ladi. Sotsiologik tahlil anashu vaziyatlarni turli to'plangan ma'lumotlarga asoslanib tahlil qiladi.

Barcha fan va sohalarda bo'lgani kabi sotsiologikada ham analiz va sintez jarayoni mavjud. Analiz va sintez bu o'zi qanday tushuncha? U nimaga xizmat qiladi? Bu qanday jarayon?

Analiz va Sintez (yunon. analysis - ajratish, bo'linish va synthesis - qo'shish, birlashtirish) deb tarjima qilinadi. Analiz va sintez - kishilar dunyoni, atrof muhitni bilish jarayonida ishlatadigan o'zaro chambarchas bog'langan tekshirish usullari. Analiz - fikran yoki amalda narsa va hodisani tarkibiy qismlarga bo'lish; sintez esa bu qismlarni fikran yoki amalda bir butun qilib, birlashtirish, narsani yaxlit olib tekshirishdir. Analiz va sintez obyektiv xarakterga ega bo'lib unda barcha hodisa, jarayon va narsalar o'rganiladi. Inson atrof-muhitini qurshab turgan obyektiv borliq murakkab va shu bilan birga konkret narsalar, hodisalardan iborat. Barcha mavjud narsalar xilma-xil xususiyat va sifatlarga ega. Shu murakkab, har turli narsa va hodisalarni o'rganish va bilish, ular tug'risidagi tushunchalarimizni chuqurlashtirish uchun shu narsa va hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratish - analiz qilish lozim. Faqat shu usul bilangina narsani to'la bilish mumkin emas, buning uchun u sintez bilan ham to'ldirilishi kerak. Sintez analizning natijalariga suyanib, narsa yoki hodisani bir butun sifatida uyushtiradi. Qisqacha aytganda analiz va sintez o'zaro dialektik borliq. Ta'kidlash joizki, analizsiz amalga oshirilgan sintez chuqur bilim, kutilgan natija bermaydi. Shu bilan birga ayni vaqtda sintez orqali yakunlanmagan analiz ham yetarli emas. Metafizika esa analiz va sintezni bir-biridan ajratib quyadi, ularga bir-birini istisno qiluvchi metodlar deb qaraydi. Ba'zi yevropa olimlari buni tanqid qilib, «tafakkur bir-biri bilan bog'langan elementlarning birlikka naqadar birlashuvidan iborat bulsa, ong predmetlarning ham o'z elementlariga shu qadar parchalanishidan iborat. Yuqoridagilardan kelib chiqib analizsiz sintez bo'lmaydi deyish mumkin. Shuni ham aytish mumkinki analiz va sintez bilishning umumiy dialektik metodini inkor etmaydi, aksincha, unga amal qilingandagina bilish to'la mazmunga ega

bo‘ladi va to‘g‘ri xulosalarga olib keladi. Materialistik dialektika analiz va sintezni deduksiya va induksiya kabi ilmiy bilishning xususiy metodi deb talqin etadi. Analiz va sintez formal logikada ham bilishning ikkita eng muhim usuli sifatida o‘rganiladi.

O‘z navbatida lingvistik jihatdan o‘rganish ham analiz va sintezga asoslanadi. Ma’lum bir tilni tadqiq qilishda uni avval til meyorlariga asoslanib uni turli bo‘limlarga ajratamiz masalan: til leksikologiya, morfologiya, sintaksiz, semantika kabilarga bo‘linadi. Bugungi kunga kelib tilga yangi kirib kelgan krosskultura, qiyosiy tipologiya orqali ham analiz va sintez qilinmoqda.

Madaniyatlararo tafovut bu tillararo va shu bilan birga madaniyatlararo munosabatlarni tahlil qilish bilan shug‘illanadi. Unga ko‘ra ma’lum til sohibi bo‘lgan xalq madaniyati namunalari ikkinchi qardosh til, yoki qardosh bo‘lmagan til sohiblari ma’daniyati bilan solishtirilib o‘rganiladi. Yevropada voyaga yetgan yosh yigit-qiz ota-onasidan o‘z hayotini yo‘lga qo‘yishi uchun ma’lum summani undirsa va u sud orqali undirilsa ularda inson o‘z haq-huquqi uchun kurashgan hisoblansa, o‘zbek millatida bunday ishni amalga oshirgan farzandlar noqobil farzand sanaladi.

Mazkur holat sotsial jihatdan sotsial differentsatsiyani keltirib chiqaradi. Insonlar jamiyatda turli maqsadlar, tasodiflar, ish yuzasidan muloqotda bo‘lishadi. Differentsiatsiya butunning sifat jihatdan turlicha ma’noli bo‘laklarga, shakllarga ajratilishi hisoblanib, u sotsial turlilikni fikrlar tafovutini qismlarga ajratgan holda o‘rganadi.

Sotsiolingvistika bevosita yosh fanlarning biri bo‘lgan psixolingvistika bilan ham bog‘liq hisoblanadi. Shu o‘rinda psixolingvistika o‘zi nima? U nimani o‘rganadi degan savol paydo bo‘ladi.

Psixolingvistika psixologiya va lingvistika oralig‘ida o‘rin olgan tushuncha. Bu tushuncha ilk bor 1946 yilda Nikolay Pronko tomonidan foydalanilgan. U til, tafakkur va ong o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganadi. Psixolingvistikaning 3 ta asosiy yo‘nalishi mavjud.

Birinchi, tilshunoslikka psixologik yondashuv. O'tgan asr tilshunoslari yozishicha til-bu ruh faoliyati va xalq madaniyatining aks etishidir. Bu orqali ular til faqat jismoniy emas balki ruhiy komponentlarga ham ega va u faqat insonlarga xos deb ta'kidlashgan. Psixolingvistika tarixida B.L.Uorfning gipotezasi (lingvistik nisbiylik nazariyasi) muhim o'rin egallaydi. Ayni uning harakatlari natijasida til va tafakkur ilm olamida katta katta qiziqishlarga sabab bo'ldi.

Psixolingvistikaning ikkinchi yo'nalishi Amerikalik strukturalistlar tomonidan va "til soxibi bo'lish jummalarni to'g'ri ayta olish qobiliyatiga asoslanadi" deb ta'kidlagan N. Xomskiy qo'llab-quvvatlangan.

Psixolingvistikaning uchinchi yo'nalishi psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, til va nutq muammolari bilan shug'ullanishgan.

Tarjimaning psixolingvistik asosi paydo bo'lishi uning umuman mavjudligini anglashda muhim unsur hisoblanadi. Bu masalada S.N.Sirovatkin tarjimaning asl o'zagi bu - psixolingvistik jarayondir. "Psixolingvistikaning tarkibi uch unsur (asliyat matnning talqin etilishi, mavjud til shakli va tarjima tili shaklini tanlash) dan iborat" Bu xolat tarjima nazariyotchilarini psixolingvistikaga yuzlanishga majbur qiladi.

Nutqiy faoliyati psixolingvistikaning obyekti hisoblansa, tarjima nazariyasining obyekti - nutqiy faoliyatining asosiy tuzilishi dir, bu tushunchalarning vazifasi ko'p hollarda tutashadi. Tarjima nazariyasiga psixolingvistikaning samarali mexanizmi, nutqiy muloxazalarning o'zlashtirilishi, nutqiy faoliyatning tuzilishi va lisoniy imkoniyat modeli to'laligicha tadbqiq etilishi mumkin. Afsuski, tarjima hali lingvistik pozitsiya bilan global tavsifga kela olmagan, shu paytgacha tarjimaning psixolingvistik tahliliga bo'lgan tadqiq qilishga urinishlari asosan to'liq bo'lmagan xarakterga ega.

Shu bilan birga zamonaviy psixolingvistlar tarjima nazariyasiga, nutqiy faoliyatning uch bo'lakli strukturasiga, programmalashuviga, amalga oshirish fazasiga, qiyoslash fazasiga, uning maqsad va motivasiyasi zarurati hisobiga,

nutqning evristik prinsipi paydo bo'lishiga, oldindan ayta olishiga, nutqiy o'zlashtirish jarayonining aktiv xarakteriga a'lohida qiziqish bildirishgan.

Transformasion modelning universalligi tarjimaning yagona adekvat modeli sifatidagi himoya tezisi ekanligi haqidagi fikrlarini yodga olaylik. Nayda ta'kidlaganidek tarjimaning ikki tizimi mavjud. Birinchi tizim biror bir birlik yoki asliyat til birliklari muqobilini tarjima tilida izlab topish uchun aniq nima qilish kerakligiga ishora qiluvchi qoida qismlari aniq ifodalanilishiga qaratildi. Tarjima nazariyasining ba'zi variantlarida tarjima amalga oshirilayotgan vositachi til mavjudligi seziladi. Ikkinchi tizim anchagina mushkulroq bo'lgan prosidurani qamrab, uch qismni o'z ichiga oladi:

- 1) Tahlil, asliyat matn A bilan belgilanib, grammatik transformatsiya terminlari, grammatik aloqalar, so'z va so'z birikmalarining mazmunini ifodalaydi
- 2) Ko'chirish, tahlil qilingan matn A dan V ga ko'chiriladi.
- 3) Qayta yaratish A tildagi matn V til me'yorlari va tuzilishiga ko'ra adaptatsiya qilib o'tkaziladi.

Shuni aytib o'tish joizki tarjima bevosita til bilan bog'liq tarzda ish olib borar ekan insonning ruhiy holatini tarjimada aks ettirish uchun bizga psixolingvistika to'g'ridan-to'g'ri tarjimonga yaqindan yordam beradi. Tarjima faqat bir tildan ikkinchi tilga shunchaki o'girib qo'yishdan iborat emasligi barchamizga ma'lum.

Sotsiolingvistikanining oldidagi muammolardan yana biri mavjud tillarning funksional til yoki til podsystemalarininng bo'linishi majud til normalari eskilari yangilari bilan almashinishi hodisadir. Shunga ko'ra sotsiolingvistika metodlari lingvistik va sotsiolingvistik prosedurasi sintezni keltirib chiqaradi. Ular o'zaro yana tabiiy holatda amalga oshadigan metod va sotsiolingvistik analiz metodiga bo'linadi. Tabiiy metod an'anaviy metodlar hisoblanib ular o'z ichiga anketa, interviyu, kuzatish kabilarga asoslanadi.

Kuzatish metodi. Psixologiya fanida bu metodning obyektiv (tashqi) va subyektiv (o'zini o'zi) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;
- 2) kuzatiladigan obyekt tanlanadi;
- 3) sinalluvchining yoshi, jinsi, kasbi aniqlanadi;
- 4) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- 5) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi;
- 6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mex.nat va sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi;
- 7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) tayinlanadi;
- 8) kuzatilganlarni qayd qilib berish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon, videoapparat, fotoapparat va boshqalar) taxt qilinadi.

Suhbat metodi. Bu metod bilan inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning obyekti va subyekt tanlanadi, mavzusi, o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, ziyrakligi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

Test metodi. Test - inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, mentalitetini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa masala, topshiriq, misol, jumboq, syujetli rasm yoki shakl test deb ataladi. Test, ayniqsa, odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligi, iste'dodlilar, iqtidorlilar va aqli zaiflarni aniqlashda kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test

metodining qimmatini tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining maxoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning obyektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, ijtimoiy fanlar yo'nalishida sotsiologiya sotsiologiya ya'ni jamiyatshunoslik bilan uzviy bog'liq tarzda tilshunoslikning bir yo'nalishi sifatida shakllangan. Bu borada hali ko'plab izlanishlar olib borish va uni yanada takomillashtirish lozim bo'ladi.

1.2. Sotsiologiyada adabiy va milliy til masalalari va ularning tarjimaiy xususiyatlari

Adabiy til masalalari bo'yicha eng obro'li mutaxassislardan biri akademik V.V. Vinogradov ommabob nashrda chop qilingan maqolasida «Adabiy til singari turli-tuman talqin qilinayotgan boshqa lisoniy hodisani topish qiyin [10,48]» ekanligini tan olgandi. Adabiy til hodisasini turlicha talqin qilinishi hozirgi zamon sinxron planida uning haddan tashqari ko'p milliy shakllari va yanada ko'proq xilma-xil tarixiy shakllari mavjudligi bilan izohlanadi.

Adabiy tillarni o'rganishda ko'plab tilshunoslarning tajribalarini umumlashtirgan F.P.Filin rus, polyak, ingliz, nemis, fransuz, ispan va yana ko'plab milliy tillarning adabiy tiliga xos bo'lgan yettita belgisini ko'rsatadi. Bular:

- 1) silliq shaklga ega bo'lishlik (obrabotannost);
- 2) bir normaga keltirilganlik;
- 3) barqarorlik (stabilnost);
- 4) unda gaplashadigan jamiyatning barcha a'zolari uchun milliy tilning turli-tuman shakllari mavjud bo'lgan holatda uni bilishning majburiyligi;
- 5) stilistik jihatdan differensiyalashganligi;
- 6) muloqatning barcha jabhalari (ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda, fan, turmushda) uchun universallik;
- 7) og'zaki va yozma shakllarining mavjudligi [62,176].

Albatta tilning adabiyligi bu belgilar bilangina chegaralanmaydi.

Boshqa tomondan yondashilsa, fanga ma'lum bo'lgan barcha adabiy tillar uchun bu belgilar majburiy emas. Masalan, milliylashtirishdan oldingi davr adabiy tilida bu belgilar to'laligicha o'z aksini topmaydi. Jumladan, milliylashtirishdan oldingi ko'plab adabiy tillar uchun normallashtirilgan og'zaki adabiy til shakli xos emas. Shunday bo'lsa-da, o'rta asrdagi yozma shakldagi ko'plab tillarning «adabiy»ligini tan olmaslik noto'g'ri bo'lardi. Adabiy tilning to'liq sotsiolingvistik xarakteristikasi akademik V.V. Vinogradov tomonidan quyidagicha talqin qilinadi: «Adabiy til u yoki bu xalqning, ayrim hollarda bir necha halqlarning og'zaki va ko'pincha yozma shaklda mavjud bo'lgan rasmiy hujjatlar yuritishda foydalaniladigan, maktab ta'limida, fan, publisistika, badiiy adabiyot, madaniyatning barcha turlarida qo'llaniladigan umumiy tilidir. Aynan shu tufayli adabiy tilning yozma kitobiy va og'zaki so'zlashuv shakllari bir-birlaridan farq qiladi.

Ularning shakllanishi, o'zaro bir-birlariga bog'liqliklari muayyan tarixiy qonuniyatlarga bo'ysindirilgan» [9, 67].

Demak, adabiy til bu milliy tilning jamiyat hayotining turli sohalariga xizmat qiluvchi, boshqa til shakllaridan o'zining lug'at sostavining boyligi, ko'p funkcionalligi, silliqqlanganligi va qat'iy normaga bo'ysindirilganligi bilan farqlanuvchi asosiy shaklidir.

« Umumiy tilshunoslik » monografiyasida yozilishicha «milliylik» tilning mavjudlik shakllaridan biri emas. Bu atama til shakllari mavjudligining milliy birlashuv shakllanish jarayonidagi muayyan tarixiy davrdagi taraqqiyotini ifodalaydi. Milliy til mana shu aspektda milliylashtirishdan oldingi davr tili bilan qiyoslab o'rganiladi[63,21]. Umumiy planda esa, til shakllari mavjudligini diaxron plandagi bir-biriga qiyoslanadigan turli shakllari deyish mumkin. Hozirgi zamonning taniqli filologi Yu.A.Sarokinning fikricha «milliy til-til mavjudligining muayyan bir shakli sifatida talqin qilinishi mumkin, ya'ni til mavjudligining muayyan bir shakli boshqa bir tipdagi til shaklga qiyoslab o'rganilishi mumkin» [52, 10]. «Tarixiy jihatdan ajratilib o'rganilishi

lozim bo'lgan» tilning mavjudlik shakllari orasidan olim qo'yidagilarni sanab o'tadi: dialekt (til mavjudligining dialekt shakli), umumxalq tili va milliy til (til mavjudligining milliy shakli).

Masalaga bunday yondashuv prinsipial jihatdan olib qaralganida yuqorida bayon qilingan tilning mavjudligi shakllarini o'rganishdagi sinxron yondashuvga zid kelmaydi.

1.3. Sotsiolingvistikada sodda so'zlashuv tili va adabiy til masalalari va ularning badiiy tarjimaga ta'siri

Til mavjudligining xalq so'zlashuv shakli ko'pincha kundalik so'zlashuv tili deb ham yuritiladi. Til shaklining bunday nomlanishi undan ko'proq kundalik hayot va turmushda, so'zlashuv jarayonida foydalanishligini ifodalaydi. Qoidaga binoan tilning xalq so'zlashuv shakli bir tomondan adabiy til shakliga, ikkinchi tomondan til mavjudligining boshqa shakllariga, jumladan dialekt shakllariga qiyoslab o'rganiladi.

Belikov V.I. til mavjudligining bu shaklini mustaqil shakl deya e'tirof qilgani holda uning beqaror shakllarga egaligini, foydalanish doirasining chegaralanmaganligini ta'kidlaydi: «Til mavjudligining xalq so'zlashuv tili shakli yoki kundalik so'zlashuv tili deyilganda adabiy tilga alternativ bo'ladigan xar qanday shakli tushuniladi, albatta bunga turli vaziyatlarda ishlatiladigan yashirin til shakllari mustasno bo'lishi mumkin» [3,77].

Ko'p tarqalganlik parametrini e'tiborga olganda so'zlashuv tilini a) umumxalq so'zlashuv tili va b) lokallashgan so'zlashuv tili yoki dialekt shakllarga ajratish mumkin.

Agar uning strukturaviy tiplari e'tiborga olinsa, masalan, uning dialog suhbat tarzida amalga oshirilishini, foydalanish jarayonining spontanligini hisobga oladigan bo'lsak, ular qatoriga territorial dialektlarni ham kiritish mumkin. Sotsiolingvistik planda esa dialektlarni xalq so'zlashuv tilidan tashqaridagi alohida shakl sifatida, til mavjudligi mustaqil shakl sifatida o'rganilishi zarur. Xalq so'zlashuv tilini va «so'zlashuv nutqi» deya atalmish

alohida mustaqil va adabiy tilning kodifikasiyalashgan turi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haligacha to'liq aniqlanmagan. «Keyingi o'n yillikda olib borilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, so'zlashuv nutqi va kodifikasiyalashtirilgan adabiy til o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Bu farqlar shunchalik kattaki, ularni bir sistema ichiga jamlab o'rganishga, so'zlashuv nutqini kodifikasiyalashtirilgan adabiy til sistemasiga kiritishga asos yo'q. Til sistemasi til birliklarining o'ziga xos yig'indisidan va ularning funksiyaga kirishuvi o'ziga xos qonunlarga bo'ysindirilganligini hisobga olgan holda so'zlashuv nutqini kodifikasiyalashtirilgan adabiy til sistemasidan farq kiladigan maxsus sistema ekanligini tan olamiz» [70, 17-18]. Nazarimizda xalq so'zlashuv tili va adabiy til sohiblarining so'zlashuv tilini bir-birlariga tenglashtirish mumkin emas. Ayni paytda ularni qat'iy ravishda bir-birlariga qarama-qarshi qo'yishga ham asos yo'q.

Ayrim tadqiqotchilar sodda so'zlashuv (prostorechiye) tilini kundalik so'zlashuv tili qatorida o'rganadilar. Masalan, M.M. Guxmanning fikricha:

«Rus va fransuz tillarda adabiy tilning og'zaki stili bilan bir qatorda kundalik so'zlashuv tilining sodda xalq tili deb ataladigan noadabiy stillari ham mavjud. Bu stillar o'rtasidagi farqni leksikaning adabiy tilga xos bo'lmagan qatlamlaridan va nisbatan erkin sintaktik qurilmalardan foydalanish tashkil qiladi. Hozirgi zamon rus tilidagi poka, zajitsya, breshish, smotatsya, pogodka u nas normalnaya, oblayat, ne zamotayte moyu knigu, o'zbek tilidagi yopiray, voy o'lmasam, to'ng'iz qopg'ur kabi so'z va iboralarning mavjudligiga e'tibor bering. Bunday noadabiy stillarning va adabiy til stilning o'zaro nisbati muayyan ijtimoiy siljishlar tufayli o'zgarib turadi» [19, 52].

Bizningcha, adabiy tilga mos bo'lmagan xalq tilini har holda faqat o'ziga xos stil deb emas, til mavjudligining mustaqil shakli deb atash mumkin.

Balki, til mavjudligining xalq so'zlashuv tili shakli uchun regional jihatdan chegaralanmagan, og'zaki muloqat vositasi bo'lgan, adabiy tilga

nisbatan farq qiladigan, til strukturasi barcha darajalarida (fonetikasida, grammatikasida, leksikasida) o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan chex kundalik so'zlashuv tilini (obecnà cestina) misol keltirish mumkindir. Chex kundalik so'zlashuv tili ancha keng doirada ishlatilishi bilan xarakterlanadi. U nafaqat adabiy tilni bilmaydiganlar doirasida balki, norasmiy xarakterdagi yig'ilishlarda, hatto maxsus diskussiyalarda va odatdagi nutq jarayonida (masalan, Karlova universiteti o'qituvchilari tomonidan) keng qo'llaniladi.

Sodda so'zlashuv tili bir tomondan adabiy so'zlashuv tiliga, ikkinchi tomondan territorial dialektlarga qiyoslab o'rganiladigan tilning lisoniy komponentidir. Bu tilning o'z so'zlashuvchilar tarkibi, Ye.D. Polivanov ta'biri bilan aytganda o'z «ijtimoiy substrat»i bor. «Hozirgi zamon og'zaki nutqining uchta sferasi mavjud, bular dialektlar, sodda so'zlashuv tili, adabiy so'zlashuv tili. Ular orasidagi farqlar eng avvalo bu tilda gapiruvchilar bilan belgilanadi» [46, 11].

Boshqa til hodisalari singari sodda so'zlashuv tili ham tarixiy kategoriyadir. U o'zining struktur-lingvistik va funksional aspektlari bilan o'z taraqqiyotining turli davrlarida turlicha bo'lishligi bilan ko'zga tashlanadi. Bu tilda gaplashuvchilarning ijtimoiy tarkibi ham barqaror emas. Uning «lisoniy materiya»sining manbalari ham tarixiy xilma-xildir. Agar XIX asr va XX asr boshida rus tilining shahar sodda so'zlashuv tili shahar koynesining dialekt shaklini vujudga keltirgan bo'lsa, XX asrning 60 yillarida jargonlar va turli xildagi «meshchanizm»lar lisoniy dominantlarga aylandi. Bu ikki xil sodda so'zlashuv tili o'rtasidagi farqlar stixiyali ravishda xilma-xildir» [46,11].

Sodda so'zlashuv tilini til mavjudligining formalaridan biri deb hisoblamasalarda, uning til tarkibida haqiqatan ham mavjud ekanligi shubhasizdir. O'z ichiga oddiy so'zlashuv tili elementlarini olgan ikki-uch jumla ham uning mavjudligidan, ijtimoiy va nutqiy madaniy statusidan dalolatdir.

Sodda so'zlashuv tilini til mavjudligining alohida shakli sifatida tan olinmaganligiga sabab - uning yagona sistemaga ega emasligidir. Uning turli xil

lahja va adabiy soʻzlashuv tiliga qiyoslanishi ham oʻziga xosdir, u odatda «til birliklarining sistemasi sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-tarixiy fenomen, unchalik yuqori darajada boʻlmagan struktura sifatida qiyoslanadi. [29, 466].

F. Filinning taʼbiricha «sodda soʻzlashuv tili sifatida ajratilgan lisoniy elementlar tilning hech bir sathida tiliq paradigmalar hosil qilmaydi» [62, 55].

Sodda soʻzlashuv tili atamasi hatto hozirgi zamon sinxron darajalari obyektlariga nisbatan ham koʻp maʼnolidir. Bu atama oʻz ichiga 1) adabiy til tarkibiga kirmagan umumxalk nutq vositalarini (dialektlarni emas), 2) adabiy til tarkibidagi qoʻpollashgan til elementlarini (adabiy soʻzlashuv tili) qamrab oladi. Bu holda bizni koʻproq adabiy til tashqarisidagi sodda soʻzlashuv tili qiziqtiradi.

Sodda soʻzlashuv tilining (hozirgi zamon shaharliklarning sodda soʻzlashuv tili nazarda tutilayapti) belgilari quyidagilardan iborat:

- 1) nutqning bir normaga keltirilmaganligi;
- 2) stilistik jihatdan differensiyalashtirilmaganligi («immanent neytrallik»);
- 3) qoʻllanilishining fakultativligi, yaʼni «muayyan sotsium uchun qoʻllanilishi majburiy emasligi»;
- 4) yozma shaklga ega emasligi;
- 5) birliklarning funksional «monotonligi», toʻliq sinonimlarning (dubletlarning) keng tarqalganligi.

Bunday fikrni ingliz va oʻzbek sodda soʻzlashuv tiliga nisbatan ham qoʻllash mumkin. Bizning koʻz oʻngimizda asosan lokal sotsial dialektlarining taʼsiri ostida oʻziga xos yangi, lokal sodda soʻzlashuv tili shakllanyapti.

I bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, ingliz tilida yaratilgan sodda so'zlashuv tilining tarjimaviy xususiyatlari o'zbek tili sodda so'zlashuv tili misolida haligacha atroflicha qiyoslanib o'rganilmagan masalalar sirasiga kiradi. Sodda so'zlashuv tili tilning mavjudlik shakli sifatida, adabiy til normalaridan ma'lum darajada farqlanadigan, til taraqqiyotining milliy etapini xarakterlaydigan badiiy asar tilini milliy xususiyatlarini aks ettiradigan, tarjimada ularga muqobil variantlar topish sotsiolingvistikaning tarjimaviy xususiyatlarining eng muhim elementlaridir.

Sotsiolingvistika haqida so'z yuritir ekanmiz, insonlardagi sotsial ijodiy tafakkur tushunchasiga duch kelamiz. Turli tillarni bilish ijodiy tafakkurni rivojlantirib, tadrijiy ravishda, izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi: dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi masalani yechish yoki savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala - bu bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo'lgan savollarning ifodasidir. Namoyon bo'lgan vazifa ko'pincha ifodalanishi shart bo'lgan maqsadni ham o'zida aks yottirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma'lum voqealikni topishga gumon va hayajon, shubha hislardan forih etishga qaratilgan maylidir. Shunga ko'ra sotsiolingvistika insonlarni turli izlanishlarga chorlash orqali turli tillar madaniyatiga va turmush tarziga sotsial muhitiga yo'l ochib boradi.

So'zlashuv jarayonida psixolingvistik natijaga ko'ra optimal hisoblangan subektning konkret eksperimental xolatiga bog'liqligidan kelib chiqqan holda evristik prinsipga batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Bu metodologik prinsip tarjima jarayonida nutqiy ifoda hosilasini modellashtirishda to'laligicha qo'llansa bo'ladi deb xisoblashadi. Tarjima tahlili shundan darak beradiki, istalgan nutqiy faoliyat kabi tarjima ham yagona model asosida yaratilmaydi. Tarjima jarayonida grammatik transformatsiya ham, leksiko-sintaktik parafraza ham, semantik qayta ifodalashdan ham foydalaniladi.

II Bob. Madaniyatlararo muloqot kontekstida tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlari

2.1. Tarjima jarayoni va madaniyatlararo muloqotning sotsiolingvistik xususiyatlari

Turli tillarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan va inson faoliyatining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan va turli tillarda gaplashuvchi kishilarning o'zaro bir-birlarini tushinishiga yo'naltirilgan tarjima amaliyoti birinchi galda sotsiolingvistik o'ziga xosliklar bilan bog'liq. Tarjimaning vositachilik funksiyasi tufayli turli davrlarda insoniyat tomonidan falsafa, turli fanlar, adabiyot, din, sport madaniyat va boshqa sohalarda qo'lga kiritilgan bilim va tajribalar boshqa halqlarning ham ilmiy, madaniy, marifiy rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ayni paytda tarjimaning maxsus fan sifatida shakllanishi ham turlicha, ba'zan qarama-qarshi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga, tarjima nazariyasida ham turlicha qarashlarning vujudga kelishiga olib keldi.

Keyingi yillarda tarjima jarayoni tadqiqotiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlilining ko'rsatishicha bu masalada hanuzgacha keskin bahs-munozaralar, tortishuvlar davom etib kelmoqda[5, 196].

Masalan ingliz tilida bu jarayon theory of translation, translation theory, translation science, translation studies, translatology deb nomlansa, nemis tilida Übersetzungswissenschaft, Übersetzungstheorie, Translationslinguistik, Translationswissenschaft, Translations theorie, Translatologie, Translatorik atamallari bilan yuritiladi. Ma'lumki badiiy tarjima jarayonining sifati ijtimoiy, siyosiy, madaniy, pragmatik omillarga bog'liqligi bois har doim ham asliyatga mos kelavermaydi[57,120].

Bunday hol tarjimonning nazariy bilimlari va madaniyatlararo salohiyatining pastligi bilangina emas, balki tarjima sifatiga salbiy ta'sir qiluvchi ekstralingvistik omillar bilan ham izohlanadi. Ular jumlasiga masalan, til va

madaniyatga doir farqlarni, buyurtmasi belgilagan vaqt tig'izligini, natijada tarjima prinsiplaridan chekinishni kiritish mumkin.

Tarjimani jarayon va uning natijasi sifatida olib qaraydigan bo'lsak, unga salbiy ta'sir qiluvchi quyidagi sotsiolingvistik xususiyatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1) asliyat matnining o'ziga xos xususiyatlariga(muallifning individual uslubi va ifoda vositalarini qo'llashdagi o'ziga xosligi bog'liq sotsiolingvistik xususiyatlar;

2) asliyat va tarjima tillaridagi pragmatik kontrast natijasida vujudga keladigan sotsiolingvistik xususiyatlar;

3) har ikkala tilning milliy-madaniy o'ziga xosliklariga bog'liq sotsiolingvistik xususiyatlar;

4) asliyat va tarjima tilining lisoniy strukturasiga bog'liq bo'lgan kontrasivlingvistik sotsiolingvistik xususiyatlar.

Shunday qilib, tarjima jarayonida mental-psixologik omillarni va leksik-semantik xususiyatlarni hisobga olinishi, matnni ijodiy tushunish va asliyat darajasida qayta tiklash jarayoni bo'lib, u birinchi navbatda ekvivalentsiz leksikani aniqlashga yo'naltiriladi. Bunday jarayonda tarjima tematik va funksional jihatdan ongli ravishda asliyatga to'liq mos keladigan darajada amalga oshirilib turli tillarga mansub madaniyatlararo muloqotni amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Tarjima qilinadigan matn yuqori darajada umumlashgan ko'p ma'noli lisoniy birliklardan tashkil topganligi uchun tarjimondan dastlab ularni tushunish, tarjima tilidagi muqobillarini topish, ulardan asliyat birligini anglatadigan eng muqobil variantini tanlash va shundan keyingi jumlani asliyat kontekstiga moslab tarjima variantlarini yaratish talab qilinadi.

Bunday sharoitda tarjima variantlari alohida tarjima kategoriyalariga asoslanishi mumkin. Asliyat matnini tushunish bu ham o'ziga xos ijodiy jarayondir. Bu jarayonda tarjimon tomonidan asliyat tili va madaniyatiga doir

bilimlar o'zlashtiriladi, boyitiladi, ular tarjima tili elementlari bilan qiyoslanadi, tahlil qilinadi va yakuniy tarjimaviy xulosalarga keladi. Bu jarayonda aslyat matni yaxlit bir tizim sifatida tushuniladi va tarjimada ana shu yaxlit tizim qayta tiklanishi lozim.

Ayni paytda ekvivalentlikning absolyut kriteriyalari mavjud emas. Tarjimon faqat har ikkala matndagi mazmuniy yaxlitlikni optimal ravishda qayta tiklashga urinadi xolos. Bu o'rinda tarjima sifati birinchidan, matnning mazmuniy aniqligi bilan belgilansa, ikkinchidan, matn adekvatligi orqali kitobxonni asar muallifi ko'zda tutgan muayyan maqsadga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Bu o'rinda albatta matn kitobxon tomonidan ham aniq tushunilishi ko'zda tutiladi.

Tilshunoslikda, ayniqsa matn tilshunosligi va semantikasida tarjima jarayoni tadqiqi uchun muhim bo'lgan yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ular jumlasiga tushunishning respektiv aspektiga doir bo'lgan kontekst, semantika, leksika, fikrni produktiv aspektida ifodalashni ko'zda tutuvchi pragmatika, ritorika kabi lingvistik kategoriyalarni kiritish mumkin.

Tarjimaning sifatini belgilovchi kriteriyalardan eng muhimi uning aslyatga adekvatligidir. Bu degani, aslyat matning leksik, grammatik, semantik mazmunini tarjima tilida to'liq qayta tiklashdir. Bunday qayta tiklash ayrim kogerentlarning alohida konstituyentlari umumiy ma'noga tobe ekanligini ham hisobga olishni ko'zda tutadi.

Kogerent matn grammatik va sintaktik qoidalarga bo'ysingan holda lisoniy birliklarning muayyan tizimlarini hosil qiladi. Matnni tushunishda nafaqat jumlalarning sintaktik tuzilishi, balki matniy faktor, yani kontekst ham ishtirok etadi. Kontekst matn tuzilishiga asos bo'lgan boshlang'ich vaziyatni, matndan ko'zda tutilgan maqsadni, personajga (muallifga) ma'lum bo'lgan barcha nolisoniy maydonni o'z ichiga oladi. Bu nolisoniy maydon tabiiy, tarixiy, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, texnik, individual va okkozional omillarga doir madaniy o'ziga xos steriotiplarni, ijtimoiy-madaniy muhitni

ifodalaydi. Har qanday matn alohida tematik tuzilishiga ega bo'lib boshdan oxirigacha leksemalarning o'zaro munosabatga kirishuvi orqali tashkil topadi.

Ayni paytda muayyan belgilariga asoslanib bir tizimga(matn) keltirilgan leksemalar turlicha tematik guruhlariga mansub bo'lishi mumkin. Shunday qilib matn birliklarining mazmunini belgilovchi semantik seleksiya (matn birliklarining tanlanishi) ro'y beradi.

Tarjimon bu o'rinda matndagi pragmatik maqsadni, asliyat personajlari o'rtasidagi ro'y berayotgan milliy o'ziga xoslik bilan bog'liq bo'lgan pragmatik munosabatlarni, ifodalangan fikrdagi presuppozisiya, tag ma'no, implisit ma'nolarni yaxshi anglashi, ularning tarjima tilida qayta tiklash hususiyatlariga duch keladi.

Tarjima jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biri tarjimon tomonidan asliyat asari personajlari tilida qo'llanilgan, ataylab sintagmatik buzilishlarga asoslangan ritorik figuralarni tarjima tilida adekvat ifodalashdir. Dialektal va milliy o'ziga xosliklarni ifodalaydigan bunday ritorik sitaktik qurilmalar tarjimashunoslik va sotsiolingvistikada ekvivalentsiz leksika, lakunalar, sotsiolegemalar deya atalib, inglizchadan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan ingliz tiliga o'girishda qator leksik, sintaktik va, semantik qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Ular qatoriga asliyat matnidagi eksplikasiyaga muhtoj bo'lgan alliterasiya, poliptoton, parallelizm, poronomasiya hodisalarini; tropalarni, realiyalarni kiritish mumkinki, bunday lingvistik kategoriyalar tarjima jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Tarjimon nafaqat tillararo, balki madaniyatlararo vositachi shaxsga aylanadi. Ko'pincha tarjimon asliyat tilining milliy-madaniyatining o'ziga xos jihatlari bilan yaxshi tanish bo'lmaganligi tufayli ularni tarjima qilishda tasviriy-tavsifiy bayon bilan cheklanadi. Shunday qilib matnni aniq tushunish xususiyati o'zga madaniyatni tushunish xususiyatiga ham aylanadi.. Demak haqiqiy tarjimon asliyat va ona tili madaniyatini chuqur biladigan shaxs bo'lishi lozim. [31,242]

Aynan mana shu vazifa «madaniyatlararo muloqot» tushunchasining magʻzini tashkil qiladi. U oʻz ichiga barcha fanlarning alohida sohalarini, jumladan, tarjima nazariyasi, sotsiologiya, filosofiya, psixologiya, tarix, adabiyot, etnologiya, dinshunoslikka doir tushunchalarni qamrab olib, tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasi darajasini (salohiyatini) tashkil qiladi.

Amaliy jihatdan bu boshqa xalq vakillari va madaniyatlari, boshqa ijtimoiy qatlamlar va turli tizimdagi grammatik oʻziga xosliklar va tarjima tili va madaniyati oʻrtasida oʻziga xos koʻprik oʻrnatilishini ifodalaydi.

Har bir tilning lisoniy sathida boshqa tillarda uchramaydigan katta miqdordagi nutq iboralari, idiomalar, barqanot iboralar mavjud. Ularni tarjima qilish yoki izohlash tarjimondan keng lingvistik erudisiyani va ijtimoiy-madaniy sferadagi turlicha bilimlarni chuqur anglashni va oʻzlashtirishni talab qiladi. Masalan, ingliz ijtimoiy-madaniy sathida mavjud boʻlgan quyidagi iboralarning oʻzbek tiliga oʻgirishda qoʻllanilgan usullarga nazar tashlaylik:

pillars of society-jamiyat qonuni

Hobson's choice-majburiy tanlov

time is on our side-vaqt biz tomonda

time is money-vaqt bu pul

happiness takes no account of time- baxtlilar uchun vaqt mavjud emas

Grundy say-odamlar nima deydi

much ado about nothing-xech narsadan koʻp shovqin

to be or not to be-yo hayot yo mamot

kidnapping-odam oʻgirlamoq

my home is my castle- mening uyim mening qasrim

Bunday lisoniy va milliy, ijtimoiy oʻziga xosliklar oʻzbek tilida ham istagancha topiladi va ularni qiyosiy planda tadqiq qilish, madaniy differensiyalar oʻrtasidagi farqlarning muqobillarini topish va maxsus lugʻatlar yaratish oʻzbek tarjimashunosligida hal qilinishini kutib yotgan muhim tarjimaviy xususiyatlar sirasiga kiradi.

2.2. Hozirgi zamon tarjimashunosligida sotsiologvistik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari

Keyingi yillarda tarjimaning ijtimoiy mohiyatini aniqlash va uni amaliyotga tadbiq qilish tobora ko'proq tadqiqotchilarni diqqat-e'tiborini tortmoqda. Jumladan Germaniyadagi tarjimaning yetakchi nazariyachilaridan bo'lgan O. Kade tarjimani ijtimoiy hodisa, tillararo muloqotni ta'minlaydigan eng muhim lisoniy vosita (Sprachmittlung) sifatida ta'riflab, uni ijtimoiy shart-sharoitlar bilan chegaralangan va ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan kishilar faoliyatining ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan ijodiy faoliyati deya baholaydi. [25,254]

Tilshunoslikda O.Kadening bunday qarashlari rus olimi L.K. Lateshevning tadqiqotlarida yanada rivojlantirildi. U tarjimaning ijtimoiy vazifasi uning sotsiologvistik mohiyatini belgilovchi barcha klassifikatsion belgilarida o'z aksini topishi lozimligini alohida ta'kidlaydi[33,156].

Tarjima jarayonining ijtimoiy aspekti tarjima nazariyasida ham u yoki bu darajada yoritilgan deyish mumkin. Ammo bu xususiyat ko'pincha tushuncha kategoriyalari qo'llanilmagan holda hozirgi zamon sotsiologvistik nazariyaga mos kelmaydigan darajada sistemaga solinmagan holda yoritilgan. Ular orasidan tarjima jarayoniga bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi sotsiologvistik xususiyatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) til va ijtimoiy tizimning o'zaro munosabatlari;
- 2) til va madaniyatning o'zaro bir-birlariga ta'siri;
- 3) til va shaxs sotsiologiyasi. Shunga muvofiq tarjima jarayonining quyidagi uch jihati alohida tadqiqotlarni talab qiladi:
 - a) tarjima ijtimoiy olamini aks ettiruvchi vosita;
 - b) tarjima ijtimoiy determinasiyalashtirilgan kommunikativ jarayon;
 - v) tarjimaning ijtimoiy me'yorlari.

Tillararo muloqot jarayonida ijtimoiy olamni aks ettirish tarjimaning eng muhim sotsiologvistik aspekti hisoblanadi. Bu xususiyat ikkita muhim

jihati bilan xarakterlanadi: birinchidan, asliyat matnidagi ijtimoiy-madaniy tizimga xos bo'lgan realiyalarni tarjima tiliga o'girish xususiyati, ikkinchisi - jamiyatning ijtimoiy differensiyalashgan tushunchalarini tarjima tilidagi differensiyalashgan tushunchalar orqali bivosita ifodalash. Masalan, ijtimoiy realiyalarni tarjima qilish xususiyati ularni boshqa lisoniy madaniyatdagi analoglarini topish bilan bog'liq. Bu jarayonning murakkabligi shundaki, u ijtimoiy borliqni turli millatlar turlicha tasavvur qilinishi bilan bog'likligida o'z aksini topadi. Misol sifatida "middle class" tushunchasini «Katta inglizcha-ruscha lug'at»da qanday izohlanishiga nazar tashlaylik: "люди среднего достатка, средние слои общества (средняя и мелкая буржуазия, интеллигенция, служащие, высокооплачиваемые рабочие)".

Ularini o'zbek tiliga quyidagicha o'girish mumkin: «o'rtacha(farovonlikda) yashaydigan kishilar», «jamiyatning o'rta tabaqasiga mansub kishilar»(o'rta va mayda burjuaziya, intelligensiya, xizmatchilar, katta maoshli ishchilar). Ayni paytda bu so'z birikmalari kontekst jarayonida ko'pincha konkretlashtirilib, tarjima tilida ham bir xil ma'no ifodalovchi ijtimoiy- siyosiy atamaga aylanishi mumkin. Masalan upper middle class -«yirik burjuaziya»; middle class prejudices - "burjuacha bid'at, xurofat».

Sotsiolingvistik tadqiqotlar olib borayotgan olimlar bugungi kunda o'z diqqat e'tiborlarini davlatning ijtimoiy-lisoniy holatini belgilaydigan omillar majmuasiga qaratmoqdalar. Bunday omillar quyidagi komponentlardan tashkil topadi: siyosiy, iqtisodiy va sotsial infrastrukturning rivojlanish darajasi; tilning mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi siyosiy mavkei; aholining demografik va ma'rifiy xususiyatlari darajasi; milliy-lisoniy siyosat darajasi, muayyan madaniy tarixiy qatlamga mansubligi; bu tilning va boshqa tillarning shu joyda qo'llaniladigan umumiy kommunikativ muhitining hajmi va ularning ijtimoiy funksiyalari.

II bob bo'yicha xulosalar

Turli tillarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan va inson faoliyatining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan va turli tillarda gaplashuvchi kishilarning o'zaro bir-birlarini tushinishga yo'naltirilgan tarjima amaliyoti birinchi galda sotsiolingvistik o'ziga xosliklar bilan bog'liq.

Ma'lumki badiiy tarjima jarayonining sifati ijtimoiy, siyosiy, madaniy, pragmatik omillarga bog'liqligi bois har doim ham asliyatga mos kelavermaydi. Bunday hol tarjimonning nazariy bilimlari va madaniyatlararo salohiyatining pastligi bilangina emas, balki tarjima sifatiga salbiy ta'sir qiluvchi ekstralingvistik omillar bilan ham izohlanadi. Ular jumlasiga masalan, til va madaniyatdagi doir farqlarni, buyurtmasi belgilagan vaqt tig'izligini, natijada tarjima prinsiplaridan chekinishni kiritish mumkin. Tarjima jarayonida ayni paytda nafaqat leksik birliklarning semantik potentsiali, balki ularning sotsiolekt, maxsus funksiyalari ham ishtirok etadi.

Tarjima jarayonida muhim rol o'ynovchi faktorlardan biri uning pragmatik aspektidir. U birinchi navbatda tarjima kim uchun va qanday maqsadda amalga oshirilishini belgilab beradi[21, 214].

Tarjimon bu o'rinda matndagi pragmatik maqsadni, asliyat personajlari o'rtasidagi ruy berayotgan milliy o'ziga xoslik bilan bog'liq bo'lgan pragmatik munosabatlarni, ifodalangan fikrdagi presuppozisiya, tagma'no, implisit ma'nolarni yaxshi anglashi, ularning tarjima tilida qayta tiklash xususiyatlariga duch keladi. Tarjimoni jarayon va uning natijasi sifatida olib qaraydigan bo'lsak, unga salbiy ta'sir qiluvchi quyidagi sotsiolingvistik xususiyatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1) asliyat matnining o'ziga xos xususiyatlariga muallifning individual uslubi va ifoda vositalarini qo'llashdagi o'ziga xosligi bog'liq sotsiolingvistik xususiyatlarr;

2) asliyat va tarjima tillaridagi pragmatik kontrast natijasida vujudga keladigan sotsiolingvistik xususiyatlar;

3) har ikkala tilning milliy-madaniy o'ziga xosliklariga bog'liq sotsiolingvistik xususiyatlar;

4) asliyat va tarjima tilining lisoniy strukturasi bog'liq bo'lgan kontrastiv-lingvistik sotsiolingvistik xususiyatlar.

Shunday qilib, tarjima jarayonida mental-psixologik omillarni va leksik-semantik xususiyatlarni hisobga olinishi, matnni ijodiy tushunish va asliyat darajasida qayta tiklash jarayoni bulib u birinchi navbatda ekvivalentsiz leksikani aniqlashga yo'naltiriladi. Bunday jarayonda tarjima tematik va funksional jihatdan ongli ravishda asliyatga to'liq mos keladigan darajada amalga oshirilib turli tillarga mansub madaniyatlararo muloqotni amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Tarjima jarayonining ijtimoiy aspekti tarjima nazariyasida ham u yoki bu darajada yoritilgan deyish mumkin. Ammo bu xususiyat ko'pincha tushuncha kategoriyalari qo'llanilmagan holda hozirgi zamon sotsiolingvistik nazariyaga mos kelmaydigan darajada sistemaga solinmagan holda yoritilgan. Qolaversa, tarjima ijtimoiy hodisa sifatida sotsiolingvistika kompetensiyasiga mansub bo'lgan qator muhim belgilarga ega. Ular orasidan tarjima jarayoniga bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi sotsiolingvistik xususiyatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1) til va ijtimoiy tizimning o'zaro munosabatlari;

2) til va madaniyatning o'zaro bir-birlariga ta'siri;

3) til va shaxs sotsiologiyasi. Shunga muvofiq tarjima jarayonining quyidagi uch jihati alohida tadqiqotlarni talab qiladi:

a) tarjima ijtimoiy olamnini aks ettiruvchi vosita;

b) tarjima ijtimoiy determinasiyalashtirilgan kommunikativ jarayon;

v) tarjimaning ijtimoiy me'yorlari.

Tillararo muloqot jarayonida ijtimoiy olamni aks ettirish tarjimaning eng muhim sotsiolingvistik xususiyatsi hisoblanadi. Bu xususiyat ikkita muhim jihat bilan xarakterlanadi: birinchidan, asliyat matnidagi ijtimoiy-madaniy tizimga xos bo'lgan realiyalarni tarjima tiliga o'girish xususiyatsi, ikkinchisi - jamiyatning ijtimoiy differensiyalashgan tushunchalarini tarjima tilidagi differensiyalashgan tushunchalar orqali bivosita ifodalash.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar olib borayotgan olimlar bugungi kunda o'z diqqat e'tiborlarini davlatning ijtimoiy-lisoniy holatini belgilaydigan omillar majmuasiga qaratmoqdalar. Bunday omillar quyidagi komponentlardan tashkil topadi: siyosiy, iqtisodiy va sotsial infraquraturalarining rivojlanish darajasi; tilning mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi siyosiy mavkei; aholining demografik va ma'rifiy xususiyatlari darajasi; milliy-lisoniy siyosat darajasi, muayyan madaniy tarixiy qatlamga mansubligi; bu tilning va boshqa tillarning shu joyda qo'llaniladigan umumiy kommunikativ muhitining hajmi va ularning ijtimoiy funksiyalari. Bunday omillarning hisobga olinishi lisoniy vaziyat haqidagi ma'lumotlarni tizimga solingan sotsiolingvistik obyekt sifatida tarjima xususiyatlari nuqtai nazardan atroflicha tadqiq qilish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, ma'lum bir ma'lumotni tarjima qilish jarayonida mental-psixologik omillarni va leksik-semantik xususiyatlarni hisobga olinishi, matnni ijodiy tushunish va asliyat darajasida qayta tiklash jarayoni bulib u birinchi navbatda ekvivalentsiz leksikani aniqlashga yo'naltiriladi Bunday jarayonda tarjima tematik va funksional jihatdan ongli ravishda asliyatga to'liq mos keladigan darajada amalga oshirilib turli tillarga mansub madaniyatlararo muloqotni amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

III Bob. Ekvivalentsiz leksika va uni tarjimada berilishining sotsiolingvistik xususiyatlari

3.1. Hozirgi zamon lingvistik tadqiqotlarda «ekvivalentsiz leksika», «lakuna» tushunchalariva ularning tarjimaviy xususiyatlari

«Ikkita milliy madaniyat hyech qachon to'lig'icha bir-birlariga mos kelmaydi. Buning sababi ulardan har biri milliy va internasional elementlardan tashkil topganligi bilan izohlanadi» [8, 55]. Ma'lumki, verbal til mavjudligining birinchi sharti u milliy til ekanligi va asosan uning leksik sistemasi bilan izohlanadi. N.G. Komlev leksik ma'noning xalq madaniyati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatgani holda, bu o'rinda so'z ma'nosida madaniy komponent ustivor ekanligini ta'kidlaydi. [28, 50].

Til sistemalarida va madaniyatlarida y mavjudligi masalasi oxirgi o'n yillikda jahon olimlari tomonidan turlicha aspektlarda tadqiq qilinib, quyidagi turli xil atamalar orqali talqin qilinib kelinmoqda.: lakunalar (J.P. Vine i J. Darbelne, V.L. Muravyev), tushirib qoldirilgan tushuncha (пробел, лакуна) (K. Xeyl), tilning semantik xaritasidagi «oq dog'lar», tushirib qoldirilgan tushunchalar (антислова, пробелы, лакуны, или белый пятна на сementический карти языки) (Yu.S. Stepanov), tarjimaga tortilmaydigan so'zlar (V.G. Chernov), ekvivalentsiz leksika, nol leksema, leksik nol, nulevaya leksema (I.A. Sternin), ekvivalentsiz, yoki fon ma'noli leksika (L.S. Barxudarov, Ye.M. Vereщagin, V.G. Kostomarov), bir til matnidagi til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida tushuniladigan qorong'i ma'noli so'zlar, random holes in patterns - tasodifiy qoldirib ketishlar, [57,120] tasodifiy lakunalar madaniyatlararo muloqotda jig'iga tegadigan elementlar [49, 21] - turlicha etnik jamoalar olamning milliy manzarasidagi ichki obraz, etnoeydemalar [14, 45], tarjima qilinmaydigan leksika, adekvatsiz leksika.

S. Vlackov va S. Florinlar bu fenomen haqida gap yuritib ularni alohida kategoriyadagi ifoda vositasi sifatida realiyalar deb nomlashadi va ular jumlasiga bir xalq tilidagi va boshqa tillarga tarjimada tushunarli

bo‘lmagan, aniq muqobillari mavjud bo‘lmagan xalq hayotiga (turmush, madaniyat, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyotga) xos bo‘lgan, obyektlarni nomlaydigan so‘z va iboralarni kiritadi. [15, 416]. O.A. Ogursovaning fikricha bunday so‘zlar qiyoslanadigan tillarda anologlari mavjud bo‘lmagan tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklardir va ularni lakunalar deb atashni taklif qiladi. Uning fikricha bunday so‘zlar iboralardan emas, qisqagina, konnotasiyadan holi bir so‘zdan iborat bo‘ladi va ekvivalentsiz leksika atamasidan farqli o‘laroq, ifodalanmish ma’noning turlicha darajada ifodalay oladi [45, 83].

Tilararo va madaniyatlararo farqlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda ko‘pgina olimlar lakuna atamasidan foydalanishni afzal ko‘radilar. (lot. lacuna - tushunchadagi o‘prilgan joy, o‘pirilish proval, bo‘shlik, kavak; fransuzcha. lacune - bo‘shliq, bo‘sh joy, yetishmovchilik). A.M. Proxorov tahriri ostida chop qilingan «Советский энциклопедический словарь»da [71, 24] tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazardan bu so‘z quyidagicha talqin qilinadi: «пробел-бо‘sh qolgan ochiq joy, пропуск-matnda tushunarli bo‘lmagan tashlab ketilgan joy,». Aynan shunday talqinni «Словарь иностранных слов»da [72, 388] ham ko‘ramiz. Shunisi ajablanarliki, eng ko‘p tarqalgan «Лингвистический энциклопедический словарь» (гл. ред. В.Н. Ярцева, 1990), «Справочник лингвистических терминов» (гл. ред. Д.Э. Розенталь и М.А. Теленкова, 1972), «Словарь лингвистических терминов» (гл. ред. О.С. Ахманова. М., 1969) kabi lug‘atlarda «lakuna» so‘ziga izoh berilmagan. Bu degani «lakuna» yaqin 15-20 yillardan boshlab o‘rganila boshlanganni, lakuna va ekvivalentsiz leksika tushunchalarini sharxlaydigan yagona metodologik yechim mavjud emasligini tasdiqlaydi. Lingvistik adabiyotlarda yuqoridagi atamalarning sharhlanishi ham turli tuman.

Ulardan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tamiz:

Ilmiy adabiyotga «lakuna» atamasini ilk bora kiritgan kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J. Darbelnelar: «bir so‘z ifodalaydigan ma’noning

ikkinchi bir tilda mavjud bo'lmashligi holati» deya ta'rif beradilar. Aynan shunday fikrni Yu.S.Stepanov va V.L.Muravyev tadqiqotlarida ham uchratamiz. [58, 262]. V.L. Muravyevning ta'kidlashicha « biz lakunalar deganda faqat boshqa tillarda mavjud bo'lgan turg'un suz birikmalari bilan ifodalangan, boshqa til vakillarining lisoniy me'yorlariga mos kelmaydigan, erkin so'z birikmalari orqali perefraza bilan izohlanadigan horijiy so'zlarni tushunamiz» [41, 196]. Masalan, fransuzcha *editorialiste*, *echangiste*, *chaperon* so'zlarining o'zbek tilida ekvivalentlari mavjud emas, ammo ularni erkin so'z birikmalari orqali «gazetaga bosh moqola yozuvchi kishi», « almashtirish bilan shug'ullanuvchi kishi (kvartiralarini, uylarni, mashinalarni)», «xavfsizlik va odob yuzasidan yosh qizga hamrohlik qilib yuruvchi qariya kishi» deya izohli tarjima qilish va ularni lakunalar deb atash mumkin.

V.G. Gak lakunalarni «til sistemasida obyektiv borliqni ifodalashi lozim bo'lgan, ammo mavjud bo'lmagan so'zlar» deya ta'riflaydi. [20, 136 -146].

Bu borada fikrimizcha, V.I. Jelvis ta'rifi ko'proq muvaffaqiyatli chiqqan: «lakunalar bu bir til va madaniyatida alohida tushunchalarni ifodalaydigan, boshqa til va madaniyatlarda mustahkam o'rnashmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir [21, 214].

Keyinchalik u yana I.Yu. Markovina bilan hamkorlikda yozgan bir tadqiqotida quyidagi fikrni ilgari suradi: «Lakuna deyilganida ikki lokal madaniyatda tushunchaga doir lisoniy,emotiv kategoriyalardagi o'zaro mos kelmaslik holati ko'zda tutiladi» [21, 214].

«Agar bir tilda biror tushunchani ifodalovchi leksik birlik mavjud bo'lmasa, bu o'rinda shu til leksik sistemasida lakuna mavjudligidan dalolat beradi va qiyoslanayotgan til uchun bu ekvivalentsiz leksema hisoblanadi» deb yozadi [56, 18]. Misol tariqasida u, nemis va rus tilida mavjud bo'lgan, ko'plari internasional leksikaga aylangan «автолюбитель-avtohavaskor», «provodnik-vagon boshqaruvchisi», «kvartal», «sutka», «agentura», «кипятится-

qaynamoq», «серебриця-kumush rang jilo bermoq» soʻzlari lakunalar yoki ekvivalentsiz lesika ekanligini koʻrsatadi.

I.A.Sternin Z.D. Popova bilan hamkorlikda «lakuna» tushunchasiga quyidagi taʼrifni beradi: «Turli tillardagi denotativ semalarning toʻliq ekvivalent boʻla olmasligi tufayli lakunalar hosil boʻladi. Buni qiyoslanayotgan tillardan birida biror tushuncha yoki narsa nomi ikkinchi tilda mavjud emasligi deya izohlash mumkin» [47, 69]. Misol tariqasida ular rus tilida mavjud boʻlgan кефир, пирожки, квас, oladi, валинки, лапти, компотировать, ухват, фелетон kabi soʻzlarning ingliz tilida mavjud emasligini, rus tilidagi форточка, путёвка, больничный лист, soʻzlarining ingliz tilida mavjud emasligini keltiradilar.

O.A. Ogursova oʻz navbatida lakunaning yangicha taʼrifini keltiradi:

«Lakuna - bu soʻz yoki soʻz birikmasi orqali ifodalangan (erkin va frazeologik birikmalar) grammatik kategoriya boʻlib, ular qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud boʻlsa, ikkinchisida mavjud boʻlmaydi [45, 77-86].

N.I. Konrad, Yu.A. Sorokin, I.Yu. Markovinalar «lakuna» atamasini boshqa til va madaniyat bilan munosabatga kirishuvda roʻy beradigan barcha izohlanuvchi holatlarni hisobga olib keng maʼnoda qoʻllaydilar. Masalaga bir tomondan yondashilsa, lakuna atamasini keng maʼnoda qoʻllanilishi haqiqatdan ham mavjud boʻlgan madaniyatlararo muloqotda til va madaniyatning yaqin oʻzaro munosabatlariga tayanadi. Ikkinchi tomondan, bu mualliflarning fikricha, lingvokulturologik va madaniyatga doir lakunalarning aniqlanishi til va madaniyatning oʻzaro munosabatlaridagi ayrim konkret shakllarning korrelyasiya qilinishiga ham imkoniyat yaratishi mumkin. «Lakunalar umumiy maʼnoda bir lokal madaniyatdagi mavjud tushunchalarni ikkinchi madaniyatda mavjud emasligini fikcasiya qiladi»[34, 44-47]. N.I Konrad esa, matn ichida va matn tashqarisida izohlanishni talab qiladigan ayrim matnlarni lakunlar deb atashni taklif qiladi [30,150].

U I.Yu.Markovina bilan ham mualliflikda «Boshqa madaniyatda mavjud boʻlgan va izohlashni talab qiladigan, matnda milliy oʻziga xosliklar mavjudligini ifodalaydigan soʻzlarni biz lakunalar deb ataymiz» degan fikrni ham ilgari suradi [55, 37].

Shunday qilib turlicha madaniyat va tillarda oʻzaro mos kelmaydigan tushunchalarni tadqiq qilishda tadqiqotchilar sinxronik lakunalar atamasini ham ilgari suradilar. V.I. Zvyaginsevning taʼkidlashicha «tabiiy til doimiy rivojlanishda va leksik birliklari miqdori aniq chegaralanmagan. Unda doimiy ravishda yangi soʻzlarning paydo boʻlishi, ayrimlarining esa qoʻllanishdan chiqib ketishi bilan xarakterlanadi. [24, 192]. Tilning yangilanishi bir tomondan til tizimidagi elementlarni saqlab qolish ehtiyoji bilan ham bogʻliq, ikkinchi tomondan bu til rivojining haraktlantiruvchi kuchi hamdir. Bunday rivojlanishning natijasi tilda semantik boʻshliqlarning, «oq dogʻlar»ning vujudga kelishiga sabab boʻladi [44, 88].

Demak, til ikki tomonlama rivojlanishda va bu rivojlanish uning tarixan va bugunini oʻz ichiga oladi, binobarin lakunarlik hodisasini sinxron aspektda(sinxron lakunalar) va diaxron aspektda(diaxron lakunalar) tadqiq qilish vazifasi kelib chiqmoqda.

Bugungi kun tilshunosligida lakunalarni lingvistik va ekstralingvistik(madaniy) lakunalar sifatida talqin qilish masalasi muhim hisoblanmoqda. Ayni paytda ular birlashuvi natijasida hosil boʻladigan lingvo-madaniy lakunalar kategoriyasi ham mavjud. Ikkita til qiyoslanayotgani jarayonida aniqlanadigan lakunalar lisoniy yoki lingvistik lakunalar hisoblanadi. Aynan mana shu jarayonda tillararo boʻshliklar, mos kelmasliklar, qoldirib ketiladigan oʻrinlar aniqlanadi.

Madaniyatga doir lakunalar madaniyatlar qiyoslab oʻrganilganida, bunday madaniy belgilar ogʻzaki va yozma nutqda aks etishini qiyosiy tahlili jarayonida tahlil qilinadi.

Lakunalarining sinxron guruhlarida o'z navbatida ularning ikki asosiy tipi ajratiladi. Birinchi tip qiyoslanayotgan tillarning leksik yoki grammatik va semantik sathida yuz beradigan lakunalaridir. Ular odatda olamni lisoniy tasavvur qilishda qo'llaniladigan leksik birliklarda o'z aksini topadi. Ular tillararo lakunalarining eng ko'p tadqiq qilingan tipi hisoblanadi. Turli tadqiqotchilar (Yu.S. Stepanov, V.L. Muravyev, L.S. Barxudarov, R.A. Budagov, G.D. Gachev va b.) tomonidan ilgari surilgan lakuna tushunchasi haqidagi fikrlarini umumlashtirib Yu.A. Sorokin va I. Yu. Markovinalar lakunalarining quyidagi asosiy belgilarini ajratib ko'rsatadi: ikkinchi til va madaniyat vakili tomonidan tushunilmaslik, odatdan tashqari so'z tuyulishi, notanishlik, noaniq tushunchani bildirishi.

Bunday belgilar quyidagi oppozitsiyada aniqlanishi mumkin: tushunarli-tushunarli emas, noodatiy-odatiy, tanish-notanish, aniq-noaniq [45,77].

Shunday qilib, lakuna semiotik nuqtai nazardan ikkinchi bir tildagi bo'shlik, nol tushunchani ifodalaydi; semasiologik aspektda - fonetik va grafik jihatdan rasmiylashmagan noma'lum konstrukt, semalar hosilasi; onomasiologik nuqtai nazardan - notanish so'z orqali ifodalangan ma'no; til sistemalari nuqtai nazaridan - bu tabiiy ravishda tilning semantik makonida vujudga keladigan to'ldirilmagan leksik bo'shlik; muloqotga kirishuv nuqtai nazaridan o'zga tilda bildirilgan tushunchaning ikkinchi til sohibi ongida mavjud emasligi (milliy, madaniy, ekstralingvistik faktorlar bilan bog'liq tushunchalar).

Demak yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlarga ko'ra aytish mumkinki madaniyatga doir lakunalar madaniyatlar qiyoslab o'rganilganida, bunday madaniy belgilar og'zaki va yozma nutqda aks etishini qiyosiy tahlili jarayonida tahlil qilinadi.

3.2 Tillararo lakunarlikning tarjimaviy muammolari

Turli tillardagi lisoniy birliklarni qiyoslab o'rganishda ko'pincha bir tildagi leksik birlikning ikkinchi bir tilning lo'g'at tarkibida ekvivalenti mavjud emasligi holatlariga duch kelamiz. Tarjima nazariyasi va amaliyotida

shuningdek chet tillar o'qitish metodikasida bu holat ayniqsa tez-tez uchraydi. Masalan inglizcha. «to case» so'zini o'zbekcha «qutiga joylamoq», «crusted» so'zini «po'stloq bilan qoplangan» deya izohlab tarjima qilishimiz mumkin. Ayni paytda ruscha «кулек» so'zini inglizcha «small mat-bag»; «dochitat» so'zini «to read to the end» so'zlari bilan izohli o'girishimiz mumkin.

Lakunalar dunyoning barcha tillarida uchraydigan hodisadir. Bu holat turli tillardagi denotativ semalarning to'liq mos kelmasligi natijasida hosil bo'ladigan lakunalar deb ataladi[47,69].

Xalqning turmush va hayot tarzi shunday tushunchalarni ifodalaydigan so'zlarni vujudga keltiradiki, ular ko'pincha boshqa halqlar tillarida mavjud bo'lmaydi. Natijada bunday xorijiy so'zni ikkinchi bir tilda yagona so'z bilan ifodalaydigan leksik ekvivalent mavjud emasligi aniqlanadi. Masalan, ingliz tilida rus борщ, маячить, форточка, путевка, больничный лист, профтехучилище, закуска, галдеть, гостинец, дача, бричка, погорелец va b. so'zlarning ekvivalentlari mavjud emas. Ayni paytda o'zbek tilida «biror narsani ustida osilib turadigan narsani» ifodalashda-«flap», amaki, aka, uka yoki singilni ifodalashda - birgina «cousin», «olib kelishga bormoq»ni ifodalashda - «fetch», bir joyda xotirjam o'tirishni - «rest», shanbadan yakshanba kunigacha dam olishni - «weekend», o'y hayvonlarini -«pet», zakovatli kishilarning ona yurtidan chiqib ketishini (утечка мозгов) - «braindrain», qasddan o'lim sodir qilgan kishini tergov qiluvchi shaxsni - «coroner», tabiiy kuchlarga tob berishlikni

- «exposer», ikki haftalik vaqtni -«fortnight»kabi so'zlar bilan ifodalanishi tillararo lakunalik mavjudligiga misol bo'la oladi.

Yuqorida keltirilgan misollarning barchasida gapiruvchi shaxs o'zi sezmagan holda til sistemasida mavjud bo'lmagan birliklardan, universal tillararo va til ichidagi lakunalardan foydalanadi. Bunday lisoniy va madaniy farqlarni ifodalovchi lakunalar turli darajalarda turli mualliflar tomonidan turlicha atamalar bilan nomlanib kelinmoqda.

Atamalar borasidagi bunday xilma-xillik tillararo va til ichida vujudga kelayotgan dakuna hodisasi yuzasidan hamon bahslar davom etayotganidan va masala o'z yechimini kutayotganidan dalolatdir. Bu ilmiy tadqiqotlarning ko'pchiligi ikki tilni lisoniy va tarjimaviy qiyoslanishiga doir lingvtstik lakunalarni, ya'ni tillararo lakunalarni aniqlash va bayon qilishga bag'ishlanganligida ham o'z ifodasini topadi. Jumladan ingliz va o'zbek tillari o'rtasida mavjud bo'lgan lakunalar lug'atini tuzish, tarjima jarayonini o'rganayotgan yoki umuman chet tilini o'rganayotgan talabalar uchun muhim metodik qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin.

V.G. Gakning fikricha, tillararo lakunalar bu «ikkinchi bir tilda mavjud bo'lmagan, ammo boshqa so'zlar vositasida ifodalash mumkin bo'lgan tushunchalardir» [20,148].

I.A. Streninning ta'kidlashicha «Ikki tilni qiyoslab o'rganish jarayonida vujudga keladigan tillararo lakunalar bular ekvivalentsiz leksikalardir. Shunday qilib tillararo lakunalar tushunchasi va ekvivalentsiz leksika tushunchasi nisbiy tushunchalardir: ularning birinchisi ikkinchisi fonida vujudga keladi va o'zaro bir-birlarini to'ldirib keladi» [56,18].

Kitobxon boshqa madaniyatga xos bo'lgan matnni o'z madaniyati nuqtai nazaridan idrok qiladi va aynan mana shu jarayonda aslyat madaniyatiga xos bo'lgan tushunchaning notdg'ri idrok qilinishi, noto'g'ri tushunilishi yuz beradi.

Xorijiy tilshunoslikda lakunalarning mavjudligi lingvistik va kulturologik mexanizmlarning «funksiyaga kirishuvi» deya izohlanadi.

Til va madaniyatning ayrim fenomenlarini ular universal fenomenlar deya hisoblashib, ular barcha mahalliy til va madaniyatlarda mavjud bo'lmashligini alohida ta'kidlaydilar. Boshqacha aytganda bunday fenomenlar boshqa til va madaniyatlarda lakunalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Amerika hindularining tili va madaniyatini tadqiq qilgan D.Xayms bu qabila

hindulari tilida E.Sepir tilga olgan universal funksiyalar mavjud emas degan xulosaga keladi.

Demak, lingvistik g'ovlar mavjud bo'lmagan hollarda ham ayrim tushunchalarni tillararo idrok qilinishida lakunalar hosil bo'lishi mumkin. Chunki the Cherokees, the Black so'zlari hindularning qabila nomlari ekanligini ko'pchilik resipiyetlar tushunmasligi mumkin. Xuddi shuningdek AQSh hukumatining qarorgohi hisoblanmish «Oq uy» tushunchasi o'rtamiyona ma'lumotli resipiyentlar uchun «oqqa bo'yalgan uy» tasavvurini uyg'otishi mumkin.

Kulturologik lakunalarning yana bir turi - etnografik lakunalardir. Ularning mavjudligi boshqa lokal madaniyatda mavjud bo'lgan realiyalarning ikkinchi bir madaniyatda mavjud bo'lmasligi bilan izohlanadi.

Masalan o'zbek kitobxonlari uchun inglizcha «wide as a bed stat» qiyoslovchi iborasini «belkurakdek keng» iborasi bilan berish asliyatdagi milliy buyoqdorlikni tushunmaslikka olib kelgan bo'lardi. Lisoniy lakunalarning vujudga kelishi mahalliy (nutqiy) madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lsa-da, muayyan madaniyatlararo(interkultur) mavjud bo'ladigan lakunalarni ajratish mumkin. Masalan, turli xalqlar madaniyatida ranglar simbolikasi bir-birlariga mos kelmasligi ma'lum. Boshqa hind-yevropa xalqlaridan farqli ularoq Ekvatorial Afrika xalqlari yaxshilikni oq rang bilan, yomonlikni qora rang bilan nisbat qilishmaydilar. Turli etnoslarga xos bo'lgan madaniyatlar aro lakunalar boshqa halqlarda ham rang ramzlarida bir-birlariga mos kelmasligi kuzatiladi. Masalan, qirqquloq yaproqlari yaponlar uchun kirib kelayotgan yangi yilda muvaffaqiyatlar tilash ramzi vazifasini bajarsa, ruslar uchun o'lim, qabrison ramzi vazifasini bajaradi.

Madaniyatlararo lakunalar qatoriga turli halqlar madaniyatidagi kinetik (jestlar-imo ishoralar) lakunalarning katta qismini kiritish mumkin. Jumladan, gavda holatini turlicha tutish, emotsional holatni bildiruvchi mimikalar turli madaniyatlarda turlicha ma'nolarni anglatadi.

Masalan o'zbeklarda qulni musht qilib bosh barmoqni tik qilish «ishlar besh», o'ng qulini ko'ksiga qo'yish, hurmat izhori, «xo'p bo'ladi!» «salom», shu ma'noda koreyslarda bosh egib yengilgina ta'zim qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Turli halqlar madaniyatidagi tushunilishi qiyin bo'lgan bu kabi kinetik lakunalarni aniqlash nafaqat muloqot jarayonidagi o'zaro tushunishni qiyinlashtiradi, balki matn tarjimasida ham qo'pol xatolarga olib kelishi mumkin.

Keltirilgan misollarni nafaqat jarayon yoki holatlarning o'ziga xos belgilari sifatida, balki u yoki bu xalq madaniyatidagi uzual realiya yoki tajriba va odatlarning bir-birlariga mos kelmasligi holati deya ta'riflash mumkin. Til vakillari madaniyatidagi bunday uzual tajribalar yillar o'tishi bilan o'zgarishi, yangilarin paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda yuz beradigan lakunalarni madaniyatlararo lakunalar deyish mumkin.

Shunday qilib boshqa madaniyatlarga xos lakunalarni aniqlash milliy madaniy o'ziga xosliklarni aniqlash, tarjimada ularni repseyentlarning madaniy tasavvurlariga moslashtirish, bu o'rinda ularni tarjima tiliga o'girishning vosita va usullarini topish kabi vazifalarni qo'yadi.

Tarjima jarayonida beriladigan har qanday birlik asliyatdagi kabi mazmun va shaklni saqlab qolishi lozim hisoblanadi. Albatta bu borada har doim ham yuz foizlik natijaga erishish mushkul ammo buni uddalash uchun tarjimonning ma'lum bir tilda lug'at boyligi darajasi ijobiy darajada ya'ni yetarli bo'lishi talab etiladi.

III bob bo'yicha xulosalar

Til jamiyat hayoti uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Jamiyat taraqqiyoti bilan bir paytda uning tili ham yangi tushunchalar, yangi atamalar bilan boyib boradi. Har bir alohida olingan ijtimoiy tizim o'ziga xos taraqqiyot xususiyatlariga ega va ular to'xtovsiz ravishda tilning leksik tarkibida o'z ifodasini topadi.

Muayyan bir til sistemasiga mansub bo'lgan, boshqa tillarlarda mavjud bo'lmagan o'ziga xos voqea va hodisalarni, predmet nomlarini, tushunchalarni ifodalovchi lisoniy birliklar ekvivalentsiz leksik (lakunalar, realiyalar, presedent nomlar,, sotsiolegemalar, lakunalar) deb yuritiladi. Ularni boshqa bir tilga tarjima qilishda transkripsiya, yarim kalka, kalka, usullaridan foydalanilgan holda muallif maqsadini oydinlashtirish uchun matn ichi va matn osti izohlaridan foydalaniladi. Bu jarayon lakuna hosil qilgan lisoniy birlik ko'pincha boshqa tillar tomonidan o'zlashtirma leksikaga aylanishi tilda mustahkamlanishi mumkin.

O'z tillarida gaplashuvchi kishilar o'zlari odatlanib qolgan tushuncha va tasavvurlar yordamida so'zlar, so'z birikmalari, frazeologizmlar vositasida o'z fikrlarini ifodalaydilar, muloqotga kirishadilarki, bunday tushunchalar faqat muayyan bir ijtimoiy guruhga mansub tushunchalarni ifodalaganligi bois boshqa til vakillari uchun tushunib bo'lmaydigan, tushunilishi qiyin bo'lgan, ma'no-mazmuni noma'lum bo'lgan so'zlarga aylanadi.

Ekvivalentsizlik (lakunarlik) qarib dunyoning barcha tillarida uchraydi. Tillararo ekvivalentsizlik (lakunarlik) alohida so'z, so'z birikmasi, turg'un so'z birikmasi, jumla(sotsiolegemalar), frazeologizmlar, maqollar, barqanot iboralar darajasida vujudga kelishi mumkin.

Binobarin bunday vositalar orqali ifodalangan tushuncha boshqa tillarda mavjud bo'lmasa, ularning ma'nosi erkin so'z birikmalari vositasida izohlanadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida ekvivalentsiz leksika yoki lakuna tushunchasi u yoki bu til va madaniyatga mansub bo'lgan verbal yoki noverbal ifodalanadigan tushuncha, boshqa madaniyatlarda adekvat ifodalanmaydigan lisoniy vositalar variantlar, invariantlari sifatida talqin qilinadi.

Ekvivalentsiz leksika yoki lakunalarining vujudga kelishini quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

- tillardan, madaniyatlardan birida boshqa til va madaniyatga xos an'ana, jarayon, hodisalarni ifodalovchi tushunchalarning mavjud bo'lmashligi;

- tillardan birida boshqa tilda mavjud bo'lgan tushunchaning bir so'z bilan ifodalash mumkin bo'lgan ekvivalentining mavjud emasligi; Masalan:

coroner (ing.) - majburan qotillik sodir qilgan jinoyatchilarning ishini olib boruvchi tergovchi;

Bir tilning grammatik xususiyatlari ikkinchi tilning grammatik xususiyatlariga mos kelmasligi oqibatida vujudga keladigan lakunalarlik.

Masalan bootlegger (ing.)-spirtli ichimliklar kontrabandasi bilan shug'ullanuvchi olib-sotar;

Ingliz tiliga xos bo'lgan konversiya tufayli vujudga keladigan lakunalar (ayrim fe'llar otlardan yasalganida).Masalan: to afforest -daraxt ekib tashlamoq ;

Ekvivalentsiz leksika yoki lakunalarni tarjima tiliga o'girishda asosan ikki qiyinchilikka duch kelinadi:

- 1) tarjima tilida asliyatda berilgan so'zning aniq ekvivalenti mavjud emasligi;

- 2) predmet ma'nosi bilan birgalikda uning konnotativ ma'nosini milliy, tarixiy, buyoqdorligini adekvat qayta tiklash imkoniyatining yo'qligi;

Binobarin, ekvivalentsiz leksika yoki lakunalarining vujudga kelishining asosiy sabablari muayyan bir jamiyatdagi ijtimoiy,iqtisodiy,siyosiy, madaniy jarayonlarni ifodalashdagi o'ziga xosliklar bilan ifodalanadi. Bularning barchasi muayyan bir tildagi leksik, grammatik belgilarda o'z aksini topadi

va tadqiqotchilar uchun tillararo muloqotni o'rganish, uning tarjimaviy xususiyatlarini yechish uchun boy faktik materiallar bera oladi.

Tarjimashunoslikda lakunalar va ekvivalentsiz leksikalar tarjimasi quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

1.Xorijiy tushunchani ifodalovchi so'z shakli transliterasiya yoki transkripsiya orqali o'zlashtiriladi. Davrlar o'tishi bilan bunday o'zlashtirma so'zlar tarjima tilida mustahkam o'rinish qoladi.

2.Xorijiy so'z ifodalovchi ma'noni bir qismini kalkalash orqali tarjima tilida ifodalash. (televideniye -tele eshittirish, kalka-kalkalash -nusxa ko'chirish). Bunday ekvivalentlar ham davr o'tishi bilan tarjima tilida turg'unlashib qoladi.

3. Xorijiy tilda ifodalanuvchi tushunchani tarjima tilida mavjud bo'lgan yaqin ma'no ifodalovchi so'z bilan almashtirish. Bunday usul odatda muayyan kontekst ichida amalga oshiriladi.

4. Asliyat tilidagi ekvivalentsiz leksikani tarjima tilidagi leksik muqobili bilan almashtirish usuli(transformasiya usuli).

5. Asliyat tilidagi ekvivalentsiz leksikani tarjima tiliga izohlovchi so'z birikmalari yoki jumlar orqali izohlash. Bu usul tarjimon tomonidan kontekstda bir marta qo'llaniladi, kontekst davomida esa asliyat tilidagi shakli (transkripsiya yoki transliterasiya) qo'llanilaveradi.

XULOSA

Bugungi kunda tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlari butun dunyo olimlarining diqqat-e'tiborini tortib kelayotgan, eng muhim tadqiqot obyekti sifatida qiziqarli masalaga aylanib bormoqda. Tarjimaning sotsiolingvistik xususiyatlarini quyidagi yo'nalishlarga bo'lib o'rganish mumkin: falsafiy, lingvistik, etnopsixolingvistik, lingvomadaniyatshunoslik aspektida o'tkazilgan tadqiqotlar. Masalan, Madaniyatshunoslik falsafasida tarjimaning osiolingvistik xususiyatlari postmodernizmning o'ziga xos xususiyatlari tizmasida quyidagi aspektlarda tadqiq qilinib kelinmoqda:

- obyektning, narsaning (bizningcha tushunchaning «mavjud emasliginiligi» fiksasiya qiluvchi «belgi»si (J. Derrida, Yu. Kristeva);
- diskursda mavjud bo'lmagan fenomen, «o'ta chuqur strukturalar», «cho'kib qolgan qavvatlar», «bir-birlariga chatishib ketgan obyektlarning ko'p sonli lakunarligi», subindividual belgilar,» qoldirib etiladigan bo'sh joy, yetishmovchilik sifatida (M. Fuko, Yu. Kristeva);
- muloqot jarayonida ro'y beradigan leksik ma'noga doir qarama-qarshilik, «tushunmaslik» sifatida (V. P. Grisenko, T. Yu. Danilchenko) tadqiq qilinib kelmoqda.

Lingvistik yondashuv kontekstida ekvivalentsiz leksika yoki tillararo lakunarlik quyidagi yo'nalishlarda tadqiq qilinmoqda:

- ekvivalentsiz leksika sifatida (L. S. Barxudarov, D. Popova, A. Sternin, B. Xaritonova, O. A. Ogursova, V. L. Muravyev, Yu. S. Stepanov);

Masalaga doir tadqiqotlarning miqdori juda ko'pchiligiga qaramasdan «ekvivalentsiz leksika», «lakuna», «sotsiolegema», «realiya» tushunchalarining o'zaro bir-birlariga bog'liqligi, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar hozirgacha to'liq va atroflicha o'rganilmaganligi bois, ularning tarjimadagi va madaniyatlararo muloqotdagi mazmuniy va funksional o'ziga xosliklari ifodalovchi atamalar aralash-quralash, ba'zan sinonimik tarzda talqin qilinishi davom etib kelmoqda.

Tarjimani ijtimoiy hodisa, tillararo muloqotni ta'minlaydigan eng muhim lisoniy vosita (Sprachmittlung) ekanligi tilshunoslik va tarjima nazariyasi va amaliyotida allaqochon isbotlagan va u ijtimoiy shart-sharoitlar bilan chegaralangan, ammo ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan kishilar faoliyatining maqsadlarga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatidir.

Tarjimaning ijtimoiy vazifasi uning sotsiolingvistik mohiyatini belgilovchi barcha klassifikasion belgilarida o'z aksini topadi.

Tarjima jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biri tarjimon tomonidan asliyat tilida ifodalangan leksik, semantik, pragmatik, madaniy, tarixiy, siyosiy, iqtisodiy o'ziga xosliklarni, shuningdek asar personajlari tilida qo'llanilgan, ataylab sintagmatik buzilishlarga asoslangan ritorik figuralarni tarjima tilida adekvat ifodalashida o'z ifodasini topadi. Dialektal va milliy o'ziga xosliklarni ifodalaydigan bunday ritorik sintaktik qurilmalar tarjimashunoslik va sotsiolingvistikada ekvivalentsiz leksika, lakunalar, sotsiolegemalar deya atalib, inglizchadan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan ingliz tiliga o'girishda qator leksik, sintaktik va, semantik xususiyatlarga sabab bo'ladi. Ular qatoriga asliyat matnidagi eksplikasiyaga muhtoj bo'lgan alliteratsiya, poliptoton, parallelizm, poronomasiya hodisalarini; tropalarni, realiyalarni kiritish mumkinki, bunday lingvistik kategoriyalar tarjima jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Tarjimani jarayon va uning natijasi sifatida olib qaraydigan bo'lsak, unga salbiy ta'sir qiluvchi quyidagi xususiyatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1) asliyat matnining o'ziga xos xususiyatlariga (muallifning individual uslubi va ifoda vositalarini qo'llashdagi o'ziga xosligi) bog'liq qiyinchiliklar;

2) asliyat va tarjima tillaridagi pragmatik kontrast natijasida vujudga keladigan qiyinchiliklar;

3) har ikkala tilning milliy-madaniy o'ziga xosliklariga bog'liq qiyinchiliklar;

4) asliyat va tarjima tilining lisoniy strukturasiga bog‘liq bo‘lgan kontrasiv-lingvistik qiyinchiliklar.

Shunday qilib, tarjima jarayonida mental-psixologik omillarni va leksik-semantik xususiyatlarni hisobga olinishi, matnni ijodiy tushunish va asliyat darajasida qayta tiklash jarayoniga aylantiradi.

Ekvivalentsiz leksika yoki tillararo lakunalar haqida yoki ularni boshqa tilga o‘girish jarayoni haqida gap ketganida quyidagi holatlarga diqqat -e’tibor qaratilishi lozim:

- asliyat tilida ifodalangan tushuncha to‘laligicha (leksik, semantik aspektda) tarjima tilida mavjud bo‘lmasligi mumkin (to‘liq ekvivalentsiz leksika, absolyut lakuna);

- asliyat tilidagi tushunchani ifodalovchi lisoniy birlikning ayrim komponentlari tarjima tilda ham mavjud, ammo ular bir-birlariga adekvat emas (nisbiy ekvivalentsizlik, nisbiy lakuna). Bunday noadekvatlik quyidagi holatlarda ko‘zga tashlanadi:

- tarjima tilidagi lisoniy birlik asliyat so‘zidagi asosiy differensial semalarning konotativ komponentlari mos kelmagani holda umumiy(denotativ) ma’nosini ifodalashi mumkin;

- asliyat tilidagi tushunchaning funksional va konnotativ komponentlari tarjima tilidagi lisoniy birlikda ifodalanmay qolishi (konnotativ lakuna) yoki muayyan farqlar orqali ifodalanishi mumkin;

- asliyat tilidagi lisoniy birlikning funksional-stilistik komponentlari tarjima tilida o‘z aksni topmasligi, yoki sezilarli farqlar orqali berilishi mumkin (stilistik lakuna).

Tarjimashunoslikda lakunalar va ekvivalentsiz leksikalar tarjimasi quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

Tadqiqot natijalarini quyidagi xulosalar bilan izohlash mumkin:

- ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘girishda ekvivalentsizlikning milliy-madaniy aspektidagi ikki holatda: ekvivalentsiz leksika ijtimoiy hodisa sifatida va

madaniyat fenomeni sifatida lingvokulterema funksiyasida va madaniyatlararo muloqot fenomeni funksiyasida kelishligi aniqlandi;

- ekvivalentsiz leksika (lakuna) tushunchasining mohiyati madaniyatlararo muloqot jarayonida olamning lisoniy-milliy tasavvurini ifodalovchi konsept representi ekanligi aniqlandi;

- lingvomadaniyatshunoslikka doir ekvivalentsiz leksika ichki konnotativlikni turli tillar madaniyatidagi lakunalar sifatida metaforizasiyalash prinsiplari asosida klassifikasiya qilindi;

- ekvivalentsiz leksika yoki lakunalarning milliy-madaniy semantikasi tahlil qilindi va ularning o'zbek tiliga tarjima qilish usullari aniqlandi;

- madaniyatlararo muloqot jarayonidagi lakunalarning ichki, shaxslararo va madaniyatlararo eliminasiyalashuvi darajalari va bu jarayondagi kognitiv dissonans, madaniy o'z-o'zini anglash, madaniyatlar integrasiyalashuvi istiqbollari aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishimizda erishilgan natija va xulosalar ijtimoiy ekvivalentsiz leksika va uning ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girishga doir nazariy va amaliy tadqiqotlarni metodologik asoslarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Aralash tushunchalarni ifodalovchi ekvivalentsiz leksika, lakuna, sotsiolegemalarning konsepsiyalashtirilishi tarjimaviy xususiyatlarini tadqiq qilish, ularning mazmuniy, funksional xarakteristikalarini oydinlashtirib, tarjima nazariyasi va amaliyotini yangi bosqichlarga ko'tarishga, madaniyatlararo muloqotni tadqiq qilishda yangi yo'nalishlar ochilishiga xizmat qilishi mumkin.

Erishilgan natija va xulosalardan tarjima nazariyasi va amaliyoti, madaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, madaniyatlararo muloqot fanlarini o'qitishda ma'ruza materiallari sifatida, inglizcha- o'zbekcha ekvivalentsiz leksika bo'yicha maxsus lug'atlar tuzishda foydalanish mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Т: Шарқ НМК. 1999. - 62б.
2. Каримов «Юксак маънавият енгилмас куч». Т.; Маънавият -2008. 173б.
3. Беликов В.И. Крысин Л.П. Социоллингвистика. -М: 2000- 385с.
4. Белов А.И. О выделении некоторых групп лакун (на материале финского и русского языков) // Тезисы VI Всесоюзн. симп. по психолингв. и теории коммун.- М: 1978.- С. 19-21.
5. Быкова Г.В. Внутриязыковая лакунарность в лексической системе русского языка. Благовещенск:1998.- С. 183-196.
6. Быкова Г.В. Феноменология лексической лакунарности. Благовещенск.: Изд-во БГПУ: 2002. -170с.
7. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. Благовещенск.: Изд-во БГПУ: 2003.- 364с.
8. Верещагин Е.М. Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. 4-е изд., перераб. и доп.- М: Рус. язык, 1990.- 247 с.
9. Виноградов В.В. Литературный язык //Виноградов В.В. Избранные труды: История русского литературного языка. М: Наука, 1978. - 288с.
10. Виноградов В.А. Коваль А.И., Пархомский В.Я Социоллингвистическая типология Западной Африки.-М: Наука.1984- с.47-55.
11. Власенко С.В. Факторы лакунизации текста (на основе анализа англо-американских и русских текстов разного коммуникативного статуса): Автореф. дис. ... канд. филол. наук / РАН. Ин-т языкознания. - М: 1996.-47-67с. 12. Власенко С.В. Перевод лакунизированного текста как процесс принятия переводческих решений в условиях неопределенности //

Межкультурная коммуникация и перевод: Материалы 5-й межвуз. науч. конф. МОСУ.- М: 2006.- С. 211-214.

13. Власенко С.В. Социологемы . комплексные наименования социально-экономических институтов и внутриведомственных должностей (англо-русские сопоставления) // Актуальные проблемы изучения комплексных языковых знаков. Матер. межд. науч.конф. к 100-летию проф. А.В. Кунина. -М: 2009. -С. 32-34.

14. Власенко С.В. Сорокин Ю.А. Текст как плотно лакунизированное пространство //Вопросы психолингвистики.- М: 2007.- С. 41-45. 83

15. Влахов С. Флорин С. Непереводимое в переводе. М: Высш. шк.- 1986.-416с.

16. Данильченко Т.Ю. Лакуны, их признаки и типология. // Культурная жизнь Юга России. Краснодар: КГУКИ, 2010. -С.12-16.

17. Десницкая. Лакуны: философский и теоретико-культурный аспекты. Автореф. дисс. доктора филос. наук. Краснодар: КГУКИ, 2010.- 248с

18. Гачев Г.Д. О национальных картинах мира //Народы Азии и Африки. 1967. № 1. С.77 - 92.

19. Гухман.ММ Общее языкознание.-М:Наука 1970.-С.57.

20 . Гак В.И. К вопросу о характере русских и английских лакун. //Национально-культурная специфика речевого поведения.- М: Наука, 1977.- С. 136 - 146.

21. Жельвис В.И., Марковина И.Ю. Опыт систематизации англорусских лакун //Исследование проблем речевого общения. -М: Наука, 1979.- 214 с.

22. Жинкин Н.И. О кодовых переходах во внутренней речи //Вопр. языкознания. - М: 1964.-С. 26-38.

23. Жирмунский С.И Социальный диалект .-М: 1969.-С 23

24. Звягинцев В.И. Безэквивалентная лексика. СПб.: Изд-во С.-Петербург: 2007.- 192с.
25. Каде.О. Случайность и закономерность в переводе -М:1968 -С254
26. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. -М: 2004.
27. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение.- М: 2001.
28. Комлев Н.Г. О культурном компоненте лексического значения //Вестник Моск. ун-та. Сер. 10, Филология. 1996. №5. С. 43-50.
29. Конецкая В.П. Лексико-семантические характеристики языковых реалий // Великобритания. Лингвострановедческий словарь. -М: 1980.- С. 463-466.
30. Конрад Н.И. Восемь стансов обб осени Ду Фу //Запад и Восток. - М: 1972.- С. 150-173.
31. Костоморов Ф. Г Язык и культура:-М: 1990. -242с.
32. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. - М: ИТДГК «Гнозис», 2002.- 284с.
33. Латышев Л.К Проблемы передачи содержание в переводе -М: 1968-С.134-156.
- 34.Марковина И.Ю. Влияние лингвистических и экстралингвистических факторов на понимание текста: Дисс... канд. филол. наук. -М: 1982.- С.44-47.
35. Макарова Д.Н. Лакунарность как психоллингвистическая проблема и проблема перевода // Лакуны в языке и речи: сб. науч. трудов / под ред. проф. Ю.А. Сорокина, проф. Г.В. Быковой. Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2008. Вып. 4. С.- 59-68с.
- 36.Марковина И.Ю. Прагматические аспекты лакунологии. Теория лакун в исследовании проблем межкультурного общения. // Вопросы психоллингвистики. 2009. №3. С. 34-41.

- 37.Марковина И.Ю., Сорокин, Ю.А. Культура и текст. Введение в лакунологию.- М: ГЭОТАР-Медиа, 2008.- 144с.
- 38.Марковина И.Ю. Влияние лингвистических и экстралингвистических факторов на понимание текста: Дисс... канд. филол. наук. -М:1982.- 182с
- 39.Медведева А.Г. Различия в культурной семантике как причина непонимания в межкультурном общении // Филология, История, Межкультурная коммуникация: материалы регион, конф. молодых ученых. Иркутск: 2003.- С. 64-65.
- 40.Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика. -М: 1996.
41. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). -М: 1975.- 196 с.
42. Муравьев В.Л. О языковых лакунах (на материале французского и русского языков) // Иностранные языки в школе, 1971. №1. С. 31-40.
43. Муравьев В.Л. Проблемы возникновения этнографических лакун. -М: 1980.- 104.с
- 44.Нестеров М.Н. Русская устаревшая и устаревающая лексика. Смоленск; Брянск, 1968. -88 с.
- 45.Огурцова О.А. К проблеме лакунарности //Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб. трудов Кубанского ун-та. Вып.3. Краснодар: Изд-во Кубанского ун-та., 1979. С. 77 - 83.
46. Поливанов Е.Д. Городское просторечие:Проблемы изучения. - М: Наука, 1984.-с.11].
47. Рахимов Ғ. Социолингвистиканинг долзарб масалалари. Самарқанд- 2007.- 35б.
- 48.Ривлина А.А. Компенсация лакун и лингвокультурный конфликт // Лакуны в языке и речи: сборник научных трудов. Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2006. Вып.3. С.151-161.

49. Садыкова Г.З. Теоретические проблемы социальной лингвистики. - М: Наука, 1981, - с.301-302.
50. Ситкарева И.К. Лакуны в художественном тексте: лингвокультурологическое исследование (на материале художественных произведений писателей франкоязычной Европы). Автореф. дисс. канд. филол. наук. Пермь, 2001. 24с.
51. Соловова Е.Н. Социокультурные лакуны: типология, причины появления и способы заполнения // Иностранные языки в школе, 2006. -С. 2-7.
52. Сорокин Ю.А. Лакуны: еще один ракурс рассмотрения // Лакуны в языке и речи: сб. науч. трудов / под ред. проф. Ю.А. Сорокина, проф. Г.В. Быковой. Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003.- С. 3-10.
53. Сорокин Ю.А. Метод установления лакун как один из способов выявления специфики локальных культур (художественная литература в культурологическом аспекте) // Национально-культурная специфика речевого поведения.- М: Наука, 1977.- С.120-136.
54. Сорокин Ю.А. Опыт систематизации лингвистических и культурологических лакун: методологические и методические аспекты // Лексические единицы и организация структуры литературного текста: сб. науч. трудов. Калинин: 1983.- С. 35-52.
55. Сорокин Ю.А., Марковина И.Ю. Опыт систематизации лингвистических и культурологических лакун: Методологические и методические аспекты. //Лексические единицы и организация структуры литературного текста: Сб. науч. трудов. Калинин: 1983. -С.35 - 52.
56. Стернин И.А. Лексическая лакунарность и понятийная безэквивалентность. Воронеж: 1997.- С18.
57. Стернин И.А., Флекенштейн К. Очерки по контрастивной лексикологии и фразеологии: Учеб. пособие: в 2-х чч. Halle, 1989.- 120 с.

58.Степанов.Ю.С Язык и межкультурная коммуникация. -М: Слово, 2000. -262с.

59.Томашева И.В. Понятие «лакуна» в современной лингвистике. Эмотивные лакуны // Язык и эмоции. Волгоград.: Перемена, 1995. С.50-60.

60.Эртельт-Фиит А., Денисова-Шмидт Е. Лакуны и их классификационная сетка // Вопросы психолингвистики. М: Институт языкознания РАН, 2007. № 3.С. 39-51.

61. Феномен Новое в лингвистике. Языковые контакты. -М: Прогресс, 1972.-Вып.У1. - с.478

62. Филин Ф.П. Просторечие// Русский язык: Энциклопедия. - М: Советская энциклопедия» 1979. -239с.)

63. Швейцер А.Д. Теория перевода и социоллингвистика // А.Д. Швейцер. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты.- М:1988. -С.15-21.

64.Швейцер А.Д. Социоллингвистика // Лингвистический энциклопедический словарь.- М:1990.- С. 481-482.

65. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Ред. колл.: В. В. Красных, А. И. Изотов, В. Г. Кульпина. . -М.: МАКС Пресс, 2009. . Вып. 37. 100 с. ISBN 978-5-317-02897-8

Lug‘atlar

66. Александров А. Полный англо-русский словарь=Complete EnglishRussian Dictionary. М.: ООО "Издательство Астрель": "Издательство АСТ", 2003. - 1184 с.

67. Англо-русский лингвострановедческий словарь. / Под ред. проф.Г.В. Чернова.- М: 1996.

68. Иллюстрированный толковый словарь иностранных слов. / Сост.Л.П. Крысин. М:2008.

69.Лингвистический энциклопедический словарь /Гл. ред. В.Н. Ярцева. М.: Сов. Энциклопедия.М: 1990.- 684 с.

70. Разговорный речь.-М:Наука 1973 -с 17-18.

71. Советский энциклопедический словарь.- М: 1981. С19-24.
72. Словарь иностранных слов. -М: 1984.- 388С
73. Словарь лингвистических терминов. Ахманов -М. 1984
74. Теория и практика перевода в сфере профессиональной коммуникации: толковый словарь. / Сост. Власенко С.В. // С.В. Власенко. Договорное право: практика профессионального перевода в языковой паре английский русский.- М: 2006.- С.16-90.
75. Толковый словарь иностранных слов. / Сост. Л.П. Крысин.- М: 2000.